

**O‘ZBEKISTON REPSUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAHSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

MENEJMENT KAFEDRASI

“HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI”

“Menejment” kafedrası mudiri
_____ i.f.n. X.A.Berdiyev
“ _____ ” _____ 2015 yil

“TASDIQLAYMAN”

“Iqtisodiyot” fakulteti dekani
_____ i.f. d. A.F.Xurramov
“ _____ ” _____ 2015 yil

DO‘SANOV NIZOMJON G‘ULOM O‘G‘Lining

5230200 – “Menejment” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish
uchun

**“Iqtisodiyotni modernizatsiyalash Sharoitida tarmoqni boshqarishning
zamonaviy tuzilmalarini ishlab chiqish”(“O‘zgeoburg‘uneftgaz” AK
“Geoburneftgazservis” shu‘ba korxonasi misolida) mavzusida yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI:

“Menejment” ta‘lim yo‘nalishi IV
_____ N. Do‘sanov

ILMIY RAHBAR:

Menejment kafedrası katta
o‘qituvchisi _____ Sh. Hasanov

“Bitiruv malakaviy ishi” kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi

_____ sonli bayonnoma “ _____ ” _____ 2015 yil.

Qarshi – 2015 yil

M u n d a r i j a.

Kirish.....

I-Bob. *Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tarmoqni boshqarishning zamonaviy tuzilmalarini ishlab chiqishning nazariy asoslari*.....

1.1. *Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalarining nazariy asoslari va turlari va Shakllari*.....

1.2. *Tarmoq boshqaruvi tashkiliy tuzilmalarining funksional vazifalari*.....

1.3. *Korxonalarni boshqarishning hozirgi zamon strategiyasi*

II-Bob. *«Geoburneftgazservis» sho‘ba korxonasining iqtisodiy va boshqaruv ko‘rsatkichlari tahlili*.....

2.1. *“Geoburneftgazservis” shu‘ba korxonasining tashkiliy-iqtisodiy tavsifi*.....

2.2. *“O‘zgeoburg‘uneftegaz” shu‘ba korxonasi ining iqtisodiy va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari tahlili*.....

2.3. *“O‘zgeoburg‘uneftegaz” shu‘ba korxonasining boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi tahlili*

III-Bob. *Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida boshqaruvning zamonaviy tuzilmalarini tanlash va iqtisodiy samaradorligini oshirishni takomillashtirish*.....

3.1. *Boshqaruv tuzilmasiga kuyilgan talablar va ularni belgilovchi omillar*.....

3.2. *Boshqaruvning iqtisodiy samaradorligini oshirishni takomillashtirish*

Xulosa va takliflar

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, iqtisodiyotimizning sifat jihatidan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini Shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish bo'yicha barcha rejalarimizning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi infratuzilma tarmoqlarini yuksak sur'atlar bilan rivojlantirishga uzviy bog'liqdir.

Mamlakatimiz sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash yaqin yillarda va kelgusida respublikamizda hal qilinadigan eng ustuvor vazifalardan biridir. Ushbu ustuvor vazifani ado etish sanoat korxonalarini oldiga ishlab chiqarish quvvatlarini yanada oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, bozor raqobatlariga bardosh berish, o'z mijozlarini ko'paytirish, shu asosda pirovard natijada olinadigan foydani yanada ko'paytirishga imkon beruvchi innovatsion salohiyatni yuksaltirishga hamda u bilan shug'ullanishni zarurat qilib qo'yimoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek "Korporativ boshqaruv tizimidagi prinsip va yonda shuvlarni tubdan o'zgartirish, ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investitsiya jarayonlariga zamonaviy xalqaro korporativ menejment standartlarini joriy etish jiddiy e'tiborni talab qiladi. Eng avvalo, korporativ yoki aksiyadorlik birlashmalarimizning faoliyati samaradorligini tanqidiy baholash, ularni xorijiy davlatlardagi ana shunday korxonalar bilan taqqoslab ko'rish zarur. Chunki, bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, ayniqsa, sanoat sohasida mulkchilikning bunday shakli muhim o'rin tutadi."¹.

Mamlakatimizda joylashgan sanoat korxonalarini boshqarishda Tashkiliy tuzilmalarni oqilona tashkil etish, keng ko'lamli, chuqur iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlar uchun alohida ahamiyatga egadir. Chunki ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish, iqtisodiyotda birinchi navbatda boshqaruv tizimini takomillashtirishni taqazo etadi.

Ana shunday salohiyatga ega korxonalar, korxonalar rahbarlari, mutaxassislariga respublika iqtisodiyotini modernizatsiyalash, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. <http://www.press-service.uz/uz/news/4875/>

erkinlashtirish va rivojlantirishga qodirdirlar. Milliy iqtisodiyotda keng ko‘lamli, har taraflama, chuqur o‘zgarishlarga kirishilar ekan, eng avvalo iqtisodiyotni tizimli va tarkibiy izchil yangilash ustuvor ahamiyatga ega.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida korxonada innovatsion salohiyatni boshqarish masalalari yuzasidan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdir. Ayni paytda BMIda quyidagilar maqsad va vazifalar sifatida belgilandi va o‘rganib chiqildi:

- ishlab chiqarish korxonalarini tashkiliy tuzilmalarining nazariy asoslarini o‘rganib chiqish;

- tarmoq boshqaruvi tashkiliy tuzilmalarining funksional vazifalari o‘rganib chiqish;

- korxonalarini boshqarishning hozirgi zamon strategiyasini o‘rganib chiqish

- o‘zbekistonda sanoat korxonalarini boshqarishning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganib chiqish;

- iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida sanoat korxonalarini boshqarishda davlat dasturlarining ahamiyatini tahlil qilish;

- sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berish;

- sanoat korxonalarini boshqaruv jarayonlarini erkinlashtirish va rivojlantirish bo‘yicha takliflar berish;

BMIning predmeti. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida korxonalarda boshqarishni takomillashtirish va innovatsiyalarni to‘g‘ri tashkil etish asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga oid iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi

BMI obyekti. Qashqadaryo viloyat “O‘zgeoburg‘unefgaz” OAJ hisoblanadi.

BMIning uslubiy va nazariy asoslari. BMIning uslubiy asosini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini boshqarish, rivojlantirish va takomillashtirishga bag‘ishlangan xorijiy hamda respublikamiz yetakchi olimlarining ilmiy asarlari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy taqqoslash, mantiqiy fikrlash, statistik guruhlash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

BMIda O‘zbekiston Respublikasining Qonunlaridan, O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Namangan viloyati hokimligi iqtisodiyot boshqarmasi, Namangan viloyat statistika bosh boshqarmasima'lumotlaridan keng foydalanilgan.

BMIning tarkibiy tuzilishi. BMI kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan hamda ilovalardan tashkil topgan.

I BOB IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA TARMOQNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TUZILMALARINI ISHLAB CHIQISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalarining nazariy asoslari va turlari va shakllari

Zamonaviy menejment nazariyasida tashkilotlarni boshqarishning ikki turi ajratiladi: byurokratik va organik. Ular har xil asoslarga tayangan holatda ratsional foydalanish va keyingi rivojlanish istiqbollari topishda o'zining spetsifik jihatlariga ega.

Tarixan birinchi byurokratik tur shakllangan. Ushbu konsepsiyaga yonda shuvni XX asr boshlarida nemis sotsiologi Maks Veber asos solgan. U "ratsional byurokratiyaning normativ modelini" taklif etgan bo'lib, ushbu model oldindan mavjud bo'lgan kommunikatsiya, hisob-kitob, mehnat haqi, mehnat tuizmasi, ishlab chiqarishga munosabat tizimini tubdan o'zgartirgan. Ushbu model asosida korxonalar undagi insonlar va ular faoliyat olib borayotgan tuzilmalarga qattiq talab qo'yadigan tartibli tashkilot sifatida ko'rsatilgan. Ratsional byurokratiyaning normativ modellarining asosiy konseptual tu shunchalari quyidagilar:

1). Mehnatning aniq taqsimoti, har bir mansabda yuqori malakali mutaxassislardan foydalanish;

2). Boshqaruvning iyerarxikligi, har bir quyi pog'ona yuqori pog'onaga bo'ysunishi va u tarafidan nazorat etilishi lozim;

3). Menejrlarga o'z vazifa va majburiyatlarini aniq bajarishni ta'minlaydigan qoida va normalarning mavjudligi;

4). Rasmiy shaxs larning o'z vazifalarini bajarishlarida shaxs iy;

5). Ishga qabo'l qilishda subyektiv baholarga emas, belgilangan mansabga quyilgan kvalifikatsion talablarga mosligiga asosan amalga oshirish.

Byurokratik boshqaruv tuzilmasining asosiy tu shunchalari-ratsionallik, ma'suliyatlilik va iyerarxiklik. Veberning fikricha konsepsiyaning markaziy nuqtasi "inson" va "mansab"ning almashlab ketmasligida, chunki boshqaruv mehnati tarkibi va mazmuni unda ishlaydigan insonlar ehtiyoji bilan emas, tashkilot ehtiyojlaridan kelib chiqqan holatda belgilanishi lozim. Har bir ish bo'yicha aniq belgilangan qoidalar subyektiv va individual yonda shuvga o'rin qoldirmaydi. Bo'lar byurokratik tuzilmaning tarixan ilgari mavjud bo'lgan hamkorlikka tanyagan jamoaviy-to'zimlaradan prinsipal farqlidir.

Samarali boshqaruv tuzilmasi o'z samaradorligini insonlarning katta jamoasida aniq tartibli mehnatlarni ta'minlash kerak bo'lgan yirik va o'rta yirik korxonalarda ko'rsatdi. Ushbu tuzilma ommaviy va yirik seriyali ishlab chiqarishda, murakkab loyihalarni yechishda inson energiyasini jalb etish va insonlar mehnatini kooperatsiyalashga imkon bradi. Ammo ularning bir qator kamchiliklari mavjud bo'lib, ayniqsa ular zamonaviy iqtisodiy rivojlanish Sharoitida sezilarlidir. Avvalo byurokratik tuzilma inson potensiali (salohiyatlari)ni o'sishiga yordam bermaydi, har bir inson bajarayotgan mehnatini amalga oshirishga kerak bo'lgan qobiliyatlaridan foydalanishadi. Tashkilotning strategik va taktik rivojlanishiga doir masalalar faqat yuqori pog'onada hal etidlib, qolgan quyi pog'onalar faqat "yuqoridan tushgan" qarorlarni bajarish bilan band bo'lishadi, umumiy boshqaruv zakovati yo'qoladi (Hozirda u samarali boshqaruvning aosiy omillaridan biri deb hisoblanadi).

Byurokratik tuzilmaning yana bir kamchiligi-mehnatni takomillashtirishga yo'naltirilgan o'zgaruvchan jarayonlarni boshqarishning jarayonlarni boshqarishning ilojisizligi. Tuilma elementlarining funksional ixtisosla shuvi, ularning rivojlanishining notekis va har xil tezlik borishi bilan tavsiflanadi. Natijada tuzilmaning alohida qismlari o'rtasida qarama-qarshilik harakatlarda va qiziqishlarda kelishmovchilik yuzaga kelib, tashkilot rivoji (progressi)ni sustlashtiradi.

Organik borshqaruv tuzilmasi nisbatan qisqa tarixga ega va byurokratik tuzilmaning qarama-qarshi modeli sifatida yuzaga kelgan. Byurokratik tashkiliy tuzilma egiluvchan va mosla shuvchan tuzilmalarga muhtoj ko'pgina korxonalarni qoniqtirmay qo'ydi. Yangi yonda shuv tashkilotni "tartibli" va soat mexnaizmidek aniq

ishlaydigan mexnaizm sifatidagi samaradorligini inkor etadi va aksincha ushbu model tashkilotning radikal o'zgaruvchan reallikning obyektiv talablariga moslashuvchanligini ta'minlaydi. Ushbu muammolarning tadqiqotlari ta'kidlaydilar: asta-sekinlik bilan tashkilotning yangi turi Shakllanayapti. Unda improvizatsiya (ya'ni qiyin sharoitda yangi yo'l topish) rejalashtirishdan yuqori baholanadi, ular eski yo'llardan ko'ra yangilarini ko'proq tanlaydi. Ular diskussiya va tashabbuskorlikni qadrlaydilar.

Organik tuzilmada byurokratik tuzilmadan tubdan fraq qiladigan yuqori egiluvchanlik, qoida va meyorlarga bog'likning kamligi, guruh (brigadali) mehnatni tashkillashtirish tarmoyillari belgilangan. Keyingi tadqiqotlar organik tuzilmalarning xususiyatlarini to'ldirdi. Ular qo'yidagichadir:

Birinchi, qarorlar muhokama yordamida qabul qilinadi, avtoritet, qoida va an'analarga tayanmaydi.

Ikkinchi, muammolarni muhokama qilishda hokimiyatga emas, ishonchga mansab yo'riqnomasini bajarishga emas, yagona maqsadga intilishga e'tibor beriladi.

Uchinchi, rivojlantiruvchi bosh omil-tashkilot rivojlanishi strategiya va maqsaddir.

To'rtinchi, mehnatga ijodiy yonda shuv va kooperatsiya har bir individ faoliyati va maqsadi o'rtasidagi aloqaga tayanadi.

Beshinchi, mehnat qoidalari o'rnatilgan tartib qonun sifatida emas tamoyil ko'rinishida asoslanadi.

Oltinchi, xodimlar o'rtasida mehnat taqsimoti ularning mansabi bilan emas, yechayotgan muammolari xususiyatlari bilan SHARTLANADI.

Yettinchi, tashkilotda progressiv o'zgarishlarni amalga oshirishga doimiy tayyorgarlik bor.

Ko‘rib chiqilgan tuzilma ta‘sirida tashkilot o‘rtasida munosabatlarni o‘zgarib turshin taxmin etiladi: mehnatni funksional taqsimlanishiga zaruriyat yo‘qoladi, har bir xodimning umumiy muvaffaqiyat uchun ma‘suliyati ortadi.

Tashkiliy tuzilmalar o‘rtasidagi ahamiyatli farq (1.1.1-jadvalda) keltirilgan.

Organik boshqaruv tuzilmalariga o‘tish jiddiy tayyorgarligi ishlarini talab etadi. Avvalo kompaniyalar xodimlarni tashkilot muammolarini hal qilishda ishtirkolarini kengaytirish, ularning xabardorlik darajasini oshirish, axborot texnologiyalarini rivojlantirish kerak.

1.2.1-jadval

Boshqaruv tashkiliy tuzilmalar turlarining taqqosiy xususiyatlari

Byurokratik tur	Organik tur
Aniq belgilangan iyerarxiya	Yechilayotgan muammoga qarab liderlarning doimiy o‘zgarishi (guruhiy va individual)
Huquq va majburiyatlar tizimi	Muhokama va keli shuvlar jarayonida shakllanadigan meyor va qadriyatlar tizimi
Har bir vazifaning qator protseduralarga bo‘linishi	Muammoni yechishda jarayonli yonda shuv
Munosabatlarning rasmiyligi	O‘zini ko‘rsata olishlik, o‘zini rivojlantira olish imkon borligi
Mehnat funksiyalarining qat’iy taqsimlanishi	O‘zgaruvchan loyihalash guruhlariga vaqtinchalik ishlarni topshirish

1.2.1-jadval Boshqaruv tashkiliy tuzilmalar turlarining taqqosiy xususiyatlari

shuni aytib o‘tish joizki, organik boshqaruv tuzilmalari o‘zining rivojlanishini bosh fazasidir. Organik boshqaruv tuzilmalar o‘zgaruvchan muhitga mosla shuvchanligini ko‘paytirishga harakat qiluvchi kompaniyalar o‘rtasida keng tarqalgan.

1.2. Tarmoq boshqaruvi tashkiliy tuzilmalarining funksional vazifalari

Neft-gaz tarmog‘i korxonalarini samarali va muvozanatlashgan rivojlantirish bo‘yicha ishlarni tashkil qiladi. Uglevodorodlar konlarini o‘zlashtirish, neft, gaz, gaz kondensatini qazib olish va uglevodorodlarni qayta ishlash, ularni chuqur qayta ishlash va qimmatli komponentlarni yanada to‘liq chiqarib olish hamda uglevodorodli xom ashyodan oqilona foydalanish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan ishlar majmui bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtiradi.

Neft-gaz bozoridagi ko‘rsatkichlarni tahlil qiladi, ularning kuchli va zaif tomonlarini baholaydi, marketing strategiyasini amalga oshirishga doir tadbirlarni belgilaydi. Uglevodorodlar savdosi bozorining ko‘rsatkichlarini kuzatib boradi, tarmoqda yuz berayotgan strategik o‘zgarishlar tashxisini amalga oshiradi va uning asosida tashkiliy tuzilmani o‘zgartirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi.

Neft-gaz tarmog‘i korxonalarida texnologik jarayonlar va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yuqori texnik darajasini, ilmiy-texnik hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, neft va gaz konlarini qidirish, burg‘ulash, qazib olish, uglevodorod xom ashyosini qayta ishlash, transport, tabiiy gazni saqlash va neft mahsulotlarini sotish masalalari bo‘yicha investitsion loyihalarni joriy qilishni ta‘minlovchi istiqbolli rivojlanish dasturlari va konsepsiyalari ishlab chiqilishini tashkil qiladi.

Neft-gaz tarmog‘i rivojlanishining istiqbolli sxemalari, asosiy yo‘nalishlari va konsepsiyalari ishlab chiqilishini ta‘minlaydi. Iqtisodiyot, moliya va boshqa manfaatdor vazirliklar bilan birgalikda Davlat Investitsiya dasturiga kiritish uchun ustuvor investitsion loyihalar ro‘yxatini tuzishda ishtirok etadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari va xorijiy banklar kreditlarini jalb qilish bo‘yicha monitoring o‘tkazilishini tashkillashtiradi. Uzoq va o‘rta muddatli istiqbol uchun investitsion dasturlar hamda neft, neftni qayta ishlash va gaz sanoatini rivojlantirish va joylashtirish bo‘yicha maqsadli dastur va sxemalarni ishlab chiqishda ishtirok etadi.

Investitsion loyihalar samaradorligini baholash ishlari o'tkazilishini tashkil qiladi, Vazirlar Mahkamasi va vakolatli organlarga uzatish uchun investitsion jarayon samaradorligini oshirish va ustuvor investitsion loyihalar portfelini yangilash bo'yicha takliflarni tayyorlaydi.

Iqtisodiyot va Moliya vazirliklari bilan birgalikda investitsion dasturlar moliyalashtirilishini ta'minlaydi va buning manbalarini belgilaydi. Investitsion dastur bajarilishi hamda texnologik jarayonlar, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ilmiy-texnik hamkorlik dasturlarini amalga oshirishning yuqori texnik darajasini ta'minlashga qaratilgan tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha ishlar bajarilishini tashkil qiladi.

Neft-gaz tarmog'ida tashqi iqtisodiy faoliyat davlat dasturini bajarishga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkil qilish va amalga oshirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda geologik qidiruv ishlari, geofizik tadqiqotlar, burg'ulash, neft va gazni qazib olish, uglevodorod xom ashyosini qayta ishlash, transport, tabiiy gazni saqlash, neft mahsulotlarini sotish va shu kabi masalalar bo'yicha korxonalar va tashkilotlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish ishlarini tashkil qiladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari bo'yicha tarmoqni rivojlantirish dasturi ishlab chiqilishini tashkillashtiradi, investitsion dasturni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiya va kreditlar hajmlari va parametrlarini belgilaydi. Investitsion loyihalarni amalga oshirish bo'yicha monitoring o'tkazilishi, tashqi iqtisodiy faoliyatning turli masalalari bo'yicha subyektlarga uslubiy, axborot va maslahat yordami ko'rsatilishini nazorat qiladi.

Kerakli ilmiy-texnik va tahliliy axborot, iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar, ishlar ko'rsatkichlari va natijalarini o'rganadi va tahlil qiladi, umumlashtiradi va tartibga soladi. Loyihalarning ekspertizasini o'tkazadi, ularning moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini baholaydi. Tabiiy resurslar, energiya, materiallar, xodimlar, moliyaviy mablag'lardan oqilona foydalanishga yordam beradi. Ishlab chiqarishni boshqarishda zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo'llaydi. Tashqi aloqalarni kengaytirish va tajriba almashish uchun ishbilarmon sheriklar bilan aloqa o'rnatadi va zarur ma'lumotlarni yig'ish tizimini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining Qarorlari va Farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasi va Kompaniya rahbariyatining topshiriqlari bajarilishini nazorat qiladi. Kompaniya faoliyati masalalariga doir komissiyalar ishida hamda Boshqaruvning kengaytirilgan yig‘ilishlari va Kompaniyaning kengashlarida ishtirok etadi. Boshqarma vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha zarur ma’lumot va hisobotlar va boshqa materiallar o‘z vaqtida tuzilishi va taqdim etilishini tashkillashtiradi. Belgilangan vazifalarni hal qilishga turli masalalar (huquqiy, texnik, moliyaviy va h.k.) bo‘yicha maslahatchi va ekspertlarni jalb qiladi. O‘z vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha Xolding kompaniyasi nomidan boshqa vazirlik, idora va tashkilotlarda vakil bo‘ladi.

1.3. Korxonalarni boshqarishning hozirgi zamon strategiyasi

Korporatsiyalarning hozirgi zamon boshqaruv strategiyasi ko‘plab tamoyillarga asoslanadi. shulardan eng muhimi sinergetika tamoyilidir. “Sinergetika” so‘zi ma’nosi hamkorlik, birgalikdagi harakat ma’nosini anglatadi. Sinergetika tamoyili murakkab tarzda o‘zaro hamkorlikda bo‘lgan komponentlar yoki to‘plam bo‘laklari hamda ko‘p miqdordan iborat bo‘lgan to‘plamlarni o‘rganish bilan ifodalanadi.

Sinergetika fani bir butun shakldagi tizim holatining akslantiruvchi tizim bo‘laklarining kelishilgan holda faoliyat ko‘rsatishini o‘rganadi. Sinergetika fani turli ko‘rinishdagi tizimlarning o‘z-o‘zidan tashkil bo‘lishi, tizim holatining doimiyliigi, tizimning o‘zgarmasligi hamda tizimning parchalanish jarayonlarini o‘rganadi.

Sinergetika xususiyati o‘z ichiga uchta asosiy mafkurani jamlaydi, ya’ni nochiziqlik, tadqiq qilinayotgan tizimning ochiqiligi hamda tuzilmalarning yangi turlarini paydo bo‘lish xususiyati (dissipativlik).

Bunday tizimlarda tizim bo‘laklarining o‘zaro kelishilgan holda amal qilish holati kuzatiladi, buning natijasida tizimning tartibga solinish darajasi oshadi, ya’ni entropiya kamayib, tizimning o‘zini-o‘zi tashkil qilish darajasi oshadi.

Sinergetika ixtiyoriy turdagi tizimning vaqt bo‘yicha rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadi. O‘z-o‘zidan tashkillanishning sinergetika konsepsiyasi quyidagilardan iborat:

1. O‘zaro teng bo‘lmagan holatda bo‘lgan ochiq tizimlarni o‘rganish sinergetika tadqiqot sohasi hisoblanadi, bunday holatlar modda va energiyani tizim bo‘laklari hamda tashqi muhit o‘rtasidagi tezkor alma shuvlari ifodalaydi.

2. Muhit. Muhit rivojlanish jarayonida paydo bo‘luvchi sohalar to‘plamini ifodalaydi. Ushbu muhitda tadqiq etilayotgan sohalarning o‘zaro hamkorligi aloqa asosida ifodalanadi. Bunday tizim tarkibida turli axborotlarning o‘zaro hamkorliklari tadqiq etiladi.

3. Tashkil etish va o‘z-o‘zini tashkil qilish jarayonlari mavjudligi. Bunday jarayonlar uchun umumiy belgi jarayonlar ro‘y berishi tartibining o‘sishi hisoblanadi. Tashqaridan tashkil etilish o‘z-o‘zidan tashkil etilishga nisbatan bir turdagi muqim statistik tuzilmalarning shakllanishi bilan farqlanadi.

4. O‘z-o‘zini tashkil etish natijasi paydo bo‘lish, o‘zaro hamkorlik hamda o‘zaro ta’sir etish hisoblanadi. Tizim va uning tashkil etuvchi elementlari dinamik komponentlar hisoblanadi.

5. Tizim va uning elementlarining holati umumiy holda nodeterminallashgan xususiyatlar bilan baholanadi.

6. O‘z-o‘zini tashkil etish jarayonlari boshqa turdagi jarayonlar mavjud bo‘lgan sohada amalga oshadi. Bunda tizim muqim holatda bo‘lishi yoki rivojlanishi mumkin, aks holda parchalanishi ham mumkin.

Yuqorida keltirilgan ta’riflar sinergetika yo‘nalishiga taalluqli bo‘lib, modellashtiruvchi va o‘z-o‘zini tashkil etuvchi muhit yaratish uchun mezon ishlab chiqishga xizmat qiladi. Boshqaruv tizimlarini tadqiq etishda sinergetik yo‘nalishni tatbiq etish uchun, avvalo, tashkilot nazariyasini ko‘rib chiqish kerak. Tashkillashtirish nazariyasi ilmiy soha bo‘lib, maqsadga ega bo‘lgan murakkab dinamik tizim sifatida olingan barcha turdagi tashkilotlar tuzilishi, amal qilishi hamda rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi.

Tashkilot nazariyasiga fan sifatida tashkilotda ro‘y beruvchi jarayonlarning amaliy tajribalarini umumlashtiruvchi g‘oyalar va tamoyillar sifatida qaraladi. Tashkilot nazariyasi menejment, kibernetika, tizimlarning umumiy qurilishi, boshqaruv

qarorlarini qabul qilish, boshqaruv tizimlarini tadqiq etish va boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqaga ega. Tashkilot fanining asosi bo‘lib tektologiya (qurish, yaratish) fani hisoblanadi. Tashkilot tu shunchasi boshqaruvning obyekt va subyekti mavjudligini ifodalaydi. Ixtiyoriy tashkilot umumiy xususiyatlarga ega, ya’ni tashkilot tarkibiy elementlar to‘plamidan iborat bo‘ladi. Tadqiqot sohasi bo‘lib tashkiliy tizimlarda amal qiluvchi umumiy va maxsus qonunlar hisoblanadi.

Tashkilotning amallari quyidagilar:

1. Tani shuv - o‘rganuv amallari.
2. Uslubiy amallar.
3. Ratsional-tashkil etuvchi amallar.
4. Prognoz qiluvchi amallar.


Tashkilot nazariyasining asosiy tu shunchalari. Tashkilot jarayon sifatida hodisalar yoki amallar to‘plamini o‘z ichiga olib, asoslash, birlashtirish va tartibga solishga mo‘ljallangan. Tashkilot namoyon bo‘lishida soha sifatida ko‘rilsa, natija esa tashkiliy jarayon ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Soha tashkilotning tashkiliy elementlaridan iborat bo‘lib, tashkillashtirishga yo‘naltiriladi. Ixtiyoriy tashkilot jarayon mobaynida tashkillashtirish va rivojlanish bo‘yicha doimiy va tashkiliy talablarni qo‘yadi. Tashkilot jarayonlari tashkilot sohasi paydo bo‘lgandan so‘ng davom etadi.

Umuman, tashkilotning soha sifatida ifodasi quyidagicha: tashkilot ongli ravishda tartibga solinuvchi ijtimoiy majmua bo‘lib, uning aniq cheralari mavjud va bu majmua nisbiy-doimiy o‘zakda umumiy maqsadlarga erishish uchun faoliyat ko‘rsatadi. Tashkilotni qayta shakllantirish va tarqatish. Birinchi holatda tashkilotning tuzilmasi va uning amal qilish omillari o‘zgaradi, ikkinchi holatda esa tashkilot tuzilmasining buzilish jarayoni ro‘y beradi. Tashkilot mohiyatini tu shunish uchun sifat va tashkillashtirish tu shunchalari muhim ahamiyatga ega. Sifat tu shunchasi tashkilot mo‘tadilligi va samaradorligiga asoslanadi. Tashkillashtirish tu shunchasi esa tashkilot elementlarining tuzilmasi va o‘zaro aloqasini ifodalaydi. □

Tashkilot turlaridan qat'i nazar tashkilot tartibga solingan bo'lishi darkor va shuning uchun tashkilot o'z faoliyati jarayonida quyidagi umumiy tamoyillarga amal qilishi kerak:

1.3.1 rasmi

Tashkilot faoliyati jarayonidagi umumiy tamoyillar



1.3.1 rasm Tashkilot faoliyati jarayonidagi umumiy tamoyillar

Tashkilot qonunlari. Tashkilotning birlamchi qonunlari quyidagilardir: O‘z-o‘zini saqlash qonuni. Bunda har bir tashkiliy dinamik tizim ichki va tashqi buzuvchi ta’sirlarga qarshi turadi. Bunday holatda tashkilot o‘z salohiyatining katta qismidan foydalanadi.

O‘z-o‘zini saqlash holati tashkiliy tuzilmaning muqimligi va ishonchliligining tarkibiy qismi sifatida ko‘radi. Tashkilotning bir maromda faoliyat ko‘rsatishi uchun to‘g‘ri tanlangan tashkiliy strategiyasi va taktika muhim ahamiyatga ega. Bunday holat shunday boshqaruv amallari to‘plamini tanlash imkonini beradiki, natijada bu to‘plam tashkiliy tuzilmani uzoq muddatda to‘liq holatda saqlash imkonini yaratadi. Boshqaruv va tashkiliy amallar tashkiliy tizimning muqimligini yuqori darajada saqlashga yordam beradi. O‘z-o‘zini saqlashning past darajaligiga sabab bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: rahbarning xatolari, favqulodda (fors - major) holatlar hamda tashqi va ichki omillarning o‘zaro hamkorligi. O‘z-o‘zini saqlashga yordam berish omili, sug‘urta hisoblandi. O‘z-o‘zini saqlash tashkilot o‘lchamlari, faoliyat ko‘rinishlari, boshqaruv usullari, rahbarning mahorati va tajribasi hamda manbalarning mavjudligi va ularning sifati kabi holatlarga bog‘liq. Tashkilot muqimligidagi shartlardan biri ichki muhit holatiga bog‘liqligidir. Tashkilot muqimligi omillarini o‘rganish katta e‘tiborni talab qiladi. Tashkilot o‘z-o‘zini saqlashning qaysi darajasida ekanligini aniqlash uchun turli ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish kerak. Bunday tashkiliy tuzilmani hujjatlashtirish, modellashtirish, loyihalashtirish tamoyillari hamda iqtisodiy ko‘rsatkichlar yordamida o‘rganish mumkin. Tashkilotni saqlab qolish va tashkilot salohiyati darajasini baholash uchun menejer quyidagi baholash ko‘rsatkichlaridan foydalanadi: umumiy rentabellik darajasi, tannarxga nisbatan rentabellik darajasi, ishlab chiqarishga nisbatan va ishlab chiqarilgan mahsulotga bo‘lgan xarajatlar darajasi meyori.

Korporatsiyaning tashkilot sifatida rivojlanish qonuni. Korporatsiya rivojlanishi tashkiliy tizimning sifat jihatidan o‘zgarishiga asoslanadi. Bunday o‘zgarishlar korporatsiya tarkibi, o‘lchami va ichki jarayonlariga bog‘liq. Tashkilot rivojlanishi qonuniy jarayon bo‘lib, ixtiyoriy tizimga taalluqli, bunday tizimlar ochiq va dinamik xususiyatga ega. Rivojlanish jarayoni uchun ikki holat zarur: evolyutsion va revolyutsion. Revolyutsion holat tashkilotni qayta shakllantirish va tarqatilish

jarayonlariga bog‘liq. Rivojlanish jarayonining sifat jihatdan xususiyatlari regressiv va progressiv bo‘lishi mumkin.

Bunday holatlar tashkilot xususiyatlariga xosdir. Korporatsiya rivojlanishidagi bosh omil bo‘lib tashkilotdagi ro‘y beruvchi jarayonlar hisoblanadi.

Korporatsiya rivojlanish qonuni quyidagi tamoyillar orqali tatbiq qilinadi:

1. Dinamik muvozanat tamoyili. shartlar: a) tizim elementlar o‘rtasida optimal munosabat; b) doimiylik va o‘zgaruvchanlik o‘rtasidagi optimal munosabat; v) tashkilotning tashqi muhit bilan optimal munosabati.

2. Rivojlanish tamoyili.

3. O‘zgaruvchanlik tamoyili.

4 Inersiya tamoyili.

5. Mosla shuvchanlik tamoyili.

6. Doimiylik tamoyili.

. Korporatsiyani loyihalashtirish masalalari va mohiyati Tashkilotni loyihalashtirish bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ifodalovchi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi paytda korporatsiyalarni loyihalashtirish nafaqat yangi tashkiliy tizimlarni rejalashtirish va yaratishni ifodalaydi, balki ularni bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashtirishni ham ifodalaydi. Hozirgi zamon sharoitlarida loyihalashtirish masalalarini hal qilish uchun tizimli yonda shuv asosidagi usullardan foydalanish zarur. Tashkiliy modellar yaratilishining yagonaligi tashkilot boshqaruvini takomillashtirish jarayoni hamda tashkilotning amal qilishi uchun optimal sharoitlarni belgilash o‘rnatilgan o‘zaro hamkorlik tamoyilini ifodalaydi.


Hozirgi paytda tashkiliy modellarni loyihalashtirishda ikkita shartni hisobga olish darkor, ya’ni:

1. Atrof-muhit sharoitlariga javob bera olmaydigan va boshqaruv masalalari buzilishiga olib keluvchi modellarni yaratmaslik.

2. Tashkilot loyihalarini yaratish nafaqat turdosh loyihalarni yaratish tajribasiga asoslanish, balki loyihalashtirishning ilmiy usullariga asoslanish. Tashkiliy loyihalashtirish tashkilotning xususiy amali bo'lib, bu amal o'z ichiga ishonchlilik, doimiylik va tejamkorlik tamoyillarni olishi kerak.

Yuqoridagi tamoyillarga bog'liq ravishda loyihalashtirishning uchta ko'rinishini ifodalash mumkin:

1.3.2 rasm



1.3.3 rasm Yangi tashkiliy tuzilmani loyihalashtirishning asosiy ko'rinishlari

Tashkiliy loyihalashtirish jarayoni quyidagi masalalarni yechishda yaqindan yordam beradi: mehnat va mutaxassisliklarni tartibga solish, birlashtirish, muvofiqlashtirish, boshqaruv miqyosi va nazorat, amallar taqsimoti va ularning bajarilishida differentsiatsiya va integratsiya.

Tizimli yonda shuv ta'sirini hisobga olgan holda tashkiliy tuzilma modelini ishlab chiqishga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi 4 omilni ko'rsatish mumkin:

1. Tashqi muhit holati.
2. Tashkilotda faoliyat texnologiyasi.
3. Maqsadga nisbatan tashkilot rahbariyatining strategik amallari.

4. Tashkilotda xodimlarning ish faoliyati holati.

Tashkiliy tuzilmaning samarali yaratilishi tashkilot maqsadidan alohida bo'la olmaydi. So'nggi natija loyihaning oxirgi samaradorlik mezoni bo'lib, u loyiha variantlarining taqqoslanishida aniqlanadi.

Tashkilot loyihalashtirish jarayoni va tarkibi Bu jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Amaldagi tashkiliy tuzilma tahlili. Bu bosqichda tashkilotga qo'yilgan talablarga tashkiliy tuzilmaning qay darajada mosligi belgilanadi. Baholash mezonlariga quyidagilar kiradi: boshqaruv apparati, boshqaruv tamoyillari va boshqaruv amallari.

2. Tashkiliy tuzilmani loyihalashtirish. Bu bosqich o'z ichiga quyidagi amallarni oladi: maqsadlar va vazifalarni shakllantirish, tashkilot bo'laklari tarkibi va manbalar ta'minotini aniqlash, tashkilot amaliyotida cheklovchi kema-ketliklarni ishlab chiqish hamda boshqaruv amallarini hosil qiluvchi usullar va jarayonlar to'plami. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasini loyihalashtirish quyidagi ilmiy usullar asosida bajariladi, ya'ni mavjud tuzilmalarga xos ravishda (analog), ekspert - analitik, tashkilot maqsadlari tizimini o'z ichiga oluvchi maqsadlarni tizimlashtirish usullari hamda maqsadlar nuqtai nazaridan tashkiliy tuzilma tahlili va tashkiliy modellashtirish. Bunda vazifalar majburiyatlar taqsimotini ifodalovchi shakllangan, matematik, imitatsion, graf va boshqa turdagi modellar yaratiladi. Yuqoridagilarga bog'liq ravishda modellarning bir necha asosiy turlarini ko'rsatish mumkin, ya'ni matematik-kibernetik, amaliy, matematik-statistik.

Tashkilotning bozorga mosla shuvi. Tashkilotning bozor muhiti sharoitlariga mosla shuvi. Tashkilotning mosla shuvi tashkiliy tuzilmaning rivojlanish shakli hisoblanadi va bu shakl tashqi va ichki muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashish yo'li orqali tashkilotning asosiy amallarini saqlashni ta'minlaydi. shunga bog'liq ravishda bozor iqtisodiyoti sharoitlari tashkilot maqsadlarini bozor qiymati tarafiga nisbatan kuchayishini inobatga olsak, tashkilot mosla shuvi uni qayta qurishga olib keladi va bunda tashkiliy tuzilmaning yangi bo'g'inlari paydo bo'ladi. Korporatsiyalarning qayta shakllanishi davriy ko'rinishga ega bo'lib, bozor muhitini ishlab chiqarish muhitiga o'tishini taqozo etadi. Korporatsiyalarning mosla shuviga

strategik rejalashtirish, bozor konyunkturasi tahlili, moliyaviy boshqaruv, sotish va ta'minot tizimi tahlili va xarajatlar tuzilmasi dinamikasi tahlili o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tashkilotni qayta shakllantirish mosla shuv shaklini ifodalaydi va boshqaruv tuzilmasi tizimi o'zgarishiga olib keladi va bunda maqsadlar o'zgarishlariga bog'liq bo'ladi. shu bilan birga korporatsiyaning shakli ham o'zgaradi. Tashkiliy shakllarning rivojlanishi bozor munosabatlari qonuniyatlariga bog'liqdir. shuning uchun qayta shakllanishga tashkilot tamoyillari va tashkilotning barcha boshqaruv bo'g'inlari amallari taalluqli hisoblanadi hamda boshqaruvning yuqori organlarini qayta shakllantirishning quyidagi tamoyillarini o'z ichiga oladi:

1. Tashkilot strategiyasiga mos ravishda tashkiliy tuzilmani shakllantirish.

2. Rejali strategiyani tatbiq qilishga olib keluvchi tashkilot faoliyatiga maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatuvchi tashkilot boshqaruvi.

3. Bajarilgan vazifalarning sifat va miqdorini o'lchashga yo'naltirilgan boshqaruv nazorati tizimi. Nazoratning asosiy elementi, natija va mos keluvchi rejalar o'rtasidagi qayta aloqaning mavjudligi hisoblanadi.

O'rta bo'limni qayta shakllantirish quyidagi holatlarni ta'minlashi zarur:

1. Tashkilot funksional bo'laklarining maqsadlari va vazifalari tashkilotning umumiy maqsad va masalalariga mosligi.

2. Tashkilot bo'laklarining aniq faoliyat ko'rsatishini ta'minlash.

3. Ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish.

4. Xodimlarni rag'batlantirish.

5. Ishlab chiqarish jarayonini tartibga solish.

6. Qayta aloqani ta'minlash. Qayta shakllantirish jarayonlarini qisqa muddatda o'tqazish uchun quyidagi uchta yo'nalishda amallarni bajarish kerak: ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, boshqaruv usullari va shakllarini takomillashtirish hamda tashkilotning umumiy salohiyatini oshirish. Partisipativ tashkilot. Bu shunday tashkiliy tuzilma bo'lib, bu tashkilot xodimlarining boshqaruvda ishtirok etishlari va tashkilot a'zolarining o'z vazifalariga taalluqli bo'lgan amallar bo'yicha yechim qabul

qilish huquqini berish asosida paydo bo'lgan. Bunday tuzilma kommunikatsion aloqalar va ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish asosida paydo bo'ladi. Bunday Sharoitlarda xodimlarning shaxs iy salohiyatidan foydalanish imkoniyati ortadi.

Partisipativ boshqaruv tuzilmasi ilg'or yo'nalish hisoblanadi, chunki bunday tuzilmalarda inson omili hisobga olinadi. Partisipativ boshqaruv quyidagi yo'nalish bo'yicha tatbiq qilinishi mumkin:

1. Xodimlarning o'z faoliyatlari doirasida yechimlarini mustaqil qabul qilish huquqini berish.

2. Bu yo'nalishda va zarurat hosil bo'lganda xodimlarni yechim qabul qilish jarayoniga jalb qilish.

3. Xodimlarga bajarilgan mehnat sifati va miqdori bo'yicha mustaqil nazorat o'rnatish huquqini berish.

4. Xodimlarni ratsionalizatorlik faoliyatiga keng jalb qilish.

5. Ishchi guruhlarini xususiy holda shakllanish huquqini berish. Amaliyotda partisipativ tashkilot boshqaruvida barcha ushbu yo'nalishlar mujassam holda amalga oshiriladi, chunki ular o'zaro bog'liq yo'nalishlardir. Murakkab tizimlarni boshqarishda tizimli-sinergetik yo'nalish asosida boshqaruvchi axborot ta'sir etishlarining rezonansli mexanizmi yotadi va bu mexanizm yordamida tizimning ichki xususiyatlariga mos ravishda tizim ushbu ta'sirlarga qayta javob berishida umumiy tizimning parametrlari o'zgaradi.

Kumulyativ samara ta'sir etuvchi vositaning qiymatini emas, balki uning to'g'ri tashkil etilishini ifodalaydi, ya'ni ushbu qiymatning maqsadlariga muvofiq tizimning barqaror rivojlanishini ifodalovchi ichki sifat va xususiyatlarning o'zaro kelishilganligini ifodalaydi. Ixtiyoriy tizimda yangi tizimli tashkilotga o'tishda uning tuzilmasidagi tubdan o'zgarishlarni amalga oshirmay, o'z-o'zini tashkil etish jarayonlarini amalga oshirish kerak va bu amallarni kichik axborot ta'sirlari yordamida tartibga solish imkoni mavjud bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Sinergetik tamoyildan foydalanish boshqaruv jarayonida samarali usul tashkilotni o'z-o'zini boshqarish uslubiyoti hisoblanadi.

II-Bob. «GEOBURNEFTGAZSERVIS» SHO‘BA KORXONASINING IQTISODIY VA BOSHQARUV KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

2.1. “Geoburneftgazservis” shu‘ba korxonasining tashkiliy-iqtisodiy tavsifi

Bitiruv malakaviy ishimizning obyekti «O‘zneftgazqazibchiqarish» aksiyadorlik kompaniyasi tarkibidagi «Geoburneftgazservis» sho‘ba korxonasi O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 82-moddasiga binoan «O‘zneftgazqazibchiqarish» aksiyadolik kompaniyasi Kuzatuv Kengashining qarori bilan ta‘sis etilgan.

Korxonaga huquqiy shaxs maqomiga ega bo‘lib, o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa normativ-huquqiy xujjatlarga, shuningdek korxonaga ustaviga asosan tashkil kiladi. Korxonaga o‘zining mustaqil balansiga bank muassasalarida milliy va chet el valyutasida hisob-kitob, joriy va boshqa hisob rakamlariga ega bo‘lishiga xaqli. Korxonaga davlat ro‘yxatidan o‘tgan kundan boshlab, xuquqiy shaxs maqomiga ega bo‘ladi.

Korxonaning faoliyat maqsadi, qidirish va razvedka qilish samaradorligini oshirish, uglevodorod xomashyosining qidirib topiladigan zaxira xajmlarini ko‘paytirish va O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining neft-gaz tarmog‘iga bevosita xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun qulay Shart-Sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Korxonaga tomonidan ko‘rsatiladigan faoliyat turlari quyidagilardan iborat:

Burg‘ulash, minora qurish, neft va gaz quduqlarini sinash brigadalari bajarayotgan ishlar ustidan geologik, texnik va texnologik nazoratni tashkil etishni ta‘minlash, geologiya-qidiruv ishlari davomida ma‘sul va murakkab jarayonlarni o‘tqazishda (maxsuldor gorizontlar bo‘yicha burg‘ulash, ekspluatatsion va texnik quvurlar bilan quduqlarni mustaxkamlash, avariya, geologik mushkullik, neftgazsuv chiqishini va x.k.) amaliy yordam ko‘rsatish;

Burg'ulash texnologiyasi, neft va gaz quduqlarini sinash va mustaxkamlash, montaj va quduq og'zi jixozlarini takomillashtirish masalalari bo'yicha tavsiya va joriy etish rejalarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirilishini nazorat qilish;

Quduq qazish jarayonida avariya va geologik mushkulliklarning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish, avariya va geologik mushkullik yuz berganda ularni tugatish masalalari rejasi va reglamentlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

Burg'ulash ishlarining sifati va samaradorligini oshirish, neft va gaz konlarini qidirishda ilmiy taxlilga asoslangan xolda olinadigan geologik natijalar aniqligini oshirish;

Geologiya-qidiruv korxonalariga burg'ulash ishlari jarayonida yangi texnika, yangi asbob-uskunalar, avtomatlashgan texnik vositalar joriy etish bo'yicha dastur va rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

Geologiya-qidiruv korxonalarini kundalik va perespektiv ma'lumot-topshiriqlar (qazib utish xajmi, burg'ulash tezligi, bajarilgan ishlar xajmining pul bilan ko'rsatilgan ifodasi, burg'ulash boshlanishi lozim bo'lgan quduqlar soni, qurib tugatiladigan quduqlar soni va x.k.) bilan ta'minlash;

Loyixa-smeta xujjatlariga muvofiq geologiya-qidiruv ishlari xajmini qabul qilish va urnatilgan tartib asosida moliyalashtirish tizimini tashkil etish, shuningdek, neft va gaz quduqlari xarakati, burg'ulash, neft va gaz quduqlarni sinash kalendar vakti xaqidagi ma'lumotlarni yugish;

Geologiya-qidiruv korxonalarini choraklik ma'lumotlari asosida doimiy taxliliy ishlarni olib borish (ishlab chikarish tannarxi, foyda va rentabellik darajasi), ular asosida geologiya-qidiruv ishlari iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqish;

Ishonib topshirilgan mulk, rejim maxfiyligi saklanishini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni tashkil etadi va amalga oshiradi.

Maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab kilinadigan faoliyat turlari bilan shugullanishni qonunchilik da belgilangan tartibda litsenziya berilgandan sung amalga oshiradi.

Korxonaning ustav fondi o'zida Korxonada tomonidan ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun unga Muassis tomonidan berilgan mablag'lar, mol-mulk va boshqa aktivlar jamini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksining 177-maddasiga asosan, korxonada unga xujalik yuritish asosida biriktirilgan kuchmas mulkni sotish, ijaraga berish garovga quyish, xujalik Shirkatlari va jamiyatlarining Ustav fondlariga ulush sifatida kirim qilish xuquqiga ega emas. Korxonada Ustav fondini ko'paytirish va kamaytirilishi O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning xuquqlarini ximoya qilish tugrisida"gi qonunning 21 va 22-moddalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Amaldagi qonunlar va meyoriy xujjatlariga binoan tulanagan solik va majburiy tulovlar mikdori chegirib tashlashgandan xamda zaxira fondiga majburiy ajratmalar ajratilgandan sung, korxonaning kelgusi faoliyatini tashkil etish maqsadida turli fondlarni Shakllantirishga va «O'zneftgazqazibchiqarish» aksiyadorlik kompaniyasiga dividendlar tulanishiga yunaltiriladi.

Korxonada faoliyatining turli bosqichlarida yul quyilishi mumkin bo'lgan kuzda tutilmagan zararlarni qoplash uchun zaxira fondi tashkil etiladi va mazkur fond hisobidagi mablag'lardan boshqa maqsadlarda foydalanishga yul quyilmaydi. Zaxira fondi Ustav fondining 15 foizi xajmida belgilanib, xar yili korxonada olgan sof foydaning 5 foizidan kam bulmagan mikdordagi mablag'ni bu fondga kirim kilib borish hisobiga Shakllantiriladi va fondning umumiy xajmi Ustav sarmoyasining 15 foizi mikdoriga yetguncha kadam davom ettiriladi. Agar zaxira fondidagi mablag'lar kisman yoki tulik sarf kilingudek bulsa, u xolda majburiy ajratmalar bilan zaxira fondining tuldirilishi, korxonada Ustavining 6.2.-bandida kuzda tutilgan tartibda olib boriladi. Korxonaning boshqa fondlarini Shakllantirish «O'zneftgazqazibchiqarish» aksiyadorlik kompaniyasi karori bilan amalga oshiriladi.

«O‘zneftgazqazibchiqarish» (ta‘sischi) O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari bilan belgilangan tartibda va korxonaning Ustavai asosida korxonani boshqarishda ishtirok etishi Shart. Ta‘sischining xuquqlari quyidagidan iborat:

-korxonaning ishlarini boshqarishda ishtirok etish;

-moliyaviy-xujalik faoliyat natijasiga karab sof foyda olish;

-korxonaning ish faoliyati, mulkiy xolati, foyda va zararlar tugrisida batafsil ma‘lumot olish;

- O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari va korxonaning Ustavida kuzda tutilgan boshqa xuquqlar.

Korxonaning boshlig‘i, boshliq o‘rinbosarlari va bosh hisobchi tomonidan boshqariladi. Korxonaning boshlig‘i, uning o‘rinbosarlari va bosh hisobchisi lavozimlariga xodimlarning tatsinlanishi va egallab turgan lavozimlaridan ozod etilishi “Ta‘sischi” tomonidan amalga oshiriladi. Korxonaning boshlig‘i, boshliq o‘rinbosarlari va bosh hisobchisi korxonaning butun faoliyatiga, shuningdek ishlab chikarishning tashkil etilishiga vijdonan yondashish va qonun xujjatlarida belgilangan tartiblar asosida yondoshish va qonun xujjatlarida belgilangan tartiblar asosida tugri amalga oshirilishiga ma‘suldir. Korxonaning boshlig‘i, boshliq o‘rinbosarlari va bosh hisobchisi lavozim maoshlarini “Ta‘sischi”belgilaydi va tasdiklaydi. Korxonaning boshlig‘ining vakolatlari doirasiga O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va “Ta‘sischi” ning vakolatlari tashkari korxonaning moliyaviy-xujalik va xuquqiy faoliyati bilan bog‘liq barcha masalalarni xal qilish kiradi. Korxonaning moliyaviy-xujalik faoliyati bevosita «O‘zneftgazqazibchiqarish» aksiyadorlik kompaniyasi, solik, moliya va boshqa davlat tashkilotlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida tekShiruvdan utkaziladi, shuningdek, zarur xollarda mustaqil auditorlik xizmatidan foydalaniladi.

Korxonaning tezkor (operativ), buxgalteriya xamda statistik hisobi va hisoboti O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari va tegishli tashkilotlarning meyoriy xujjatlari asosida olib boriladi. Korxonaning moliyaviy-xujalik faoliyatining yakunlari yillik buxgalteriya hisobiti asosida belgilanadi. Korxonaning moliyaviy hisobotlari xar yili tuzilib, unda korxonaning daromad va xarajatlari milliy valyutasi “sum”da, shuningdek

chet el valyutasida xam ifodalanadi.korxonaning moliyaviy hisobot yili kalendar yili bilan mutanosib ravishda tuziladi.

2.2 “O‘zgeoburg‘uneftgaz” shu’ba korxonasi ining iqtisodiy va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari tahlili

Har qanday korxonaning iqtisodiy va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini tahlili orqali moliyaviy ahvoli va ishlab chiqarish unumdorligi darajasini bilib olish mumkin. “O‘zgeoburg‘uneftgaz” shu’ba korxonasining iqtisodiy va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini tahlil etar ekanmiz shuni ta’kidlash lozimki, jamiyat faoliyatining asosiy yo‘nalishi neft va gaz konlarini qidirib topish va burg‘ulash bo‘lib, u O‘zbekiston ichki bozorida faoliyat yuritishga yo‘naltirilgan va ichki bozor talablariga to‘laligicha mos keladi. Butun dunyoda neft va gaz taqchilligi chuqur sezilayotgan hozirgi davrda “O‘zgeoburg‘uneftgaz” shu’ba korxonasi ishlab chiqariladigan neft va gazdan samarali foydalanishga, shu bilan bir qatorda moliyaviy va ishlab chiqarish resurslari xarajatlarini minimum darajada pasaytirishga erishmoqchi. “O‘zgeoburg‘uneftgaz” shu’ba korxonasining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish maqsadida jamiyatning 2012-2014 yillardagi uzoq muddatli aktivlari haqidagi ma’lumotni tahlil qilib chiqamiz.

2.2.1-jadval

“O‘zgeoburg‘uneftgaz” shu’ba korxonasining uzoq muddatli aktivlari xaqida ma’lumot²

(ming so‘m hisobida)

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Yillar			O‘zgarishi		O‘zgarishi	
		2012	2013	2014	(+,-) yilda yilga nisbatan	2014 yilda yilga nisbatan	(%) yilda yilga nisbatan	2014 yilda yilga nisbatan

² Manba Korxonaning hisobot ma’lumotlari


1.	Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati	1441735	1753808	1947044	505309	135,1
2.	Asosiy vositalarning eskirish so'mmasi	811679	1085457	1269118	457439	156,4
3.	Asosiy vositalarning balans qiymati	630056	668351	677926	47870	107,6

2.2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning uzoq muddatli aktivlari salmog'i 2012-2014 yillar davomida doimiy ravishda ko'payib borgan. Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati 2012 yilda 1441735 ming so'mni, 2013 yilda 1753808 ming so'mni, 2014 yilda 1947044 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 505309 ming so'mga ko'paygan va o'sish surati 135,1 foizni tashkil etgan.

Asosiy vositalarning balans qiymati 2012 yilda 630056 ming so'mni, 2013 yilda 668351 ming so'mni, 2014 yilda 677926 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 47870 ming so'mga ko'paygan va o'sish surati 107,6 foizni tashkil etgan. Asosiy vositalarning balans qiymati ning boshlang'ich qiymatga nisbatan kamroq o'sganining sababai sifatida Asosiy vositalarning eskirish so'mmasi 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 156,4 foizga o'sganligidir. Bundan xulosa qilish mumkinki, korxonada texnik va texnologik jihatdan yangilanish ishlari jadallik bilan amalga oshirilayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

“O'zgeoburg'neftgaz” shu'ba korxonasining uzoq muddatli aktivlari haqida ma'lumoti diagramma ko'rinishida quyidagicha aks etadi³

³ Manba Korxonaning hisobot ma'lumotlari



2.2.2-jadval

“O‘zgeoburg‘uneftegaz” shu‘ba korxonasi debitorlik qarzlari va pul mablag‘lari xaqida ma‘lumot□

(ming so‘m hisobida)


T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Yillar			O‘zgarishi (+,-) 2014 yilda 2012 yilga nisbatan		O‘zgarishi (%) 2014 yilda 2012 yilga nisbatan	
		2012	2013	2014				
1.	Debitor qarzlari	29913667	46432729	65299012	35385345	218,3		
2.	Xaridor va buyurtmachilar qarzi	24048951	30792543	33626651	9577700	139,8		

3.	Xodimlarga berilgan bunaklar	1040	1540	1540	500	148,1
4	Boshqa debitorlik qarzlari	10307337	10307337	26130811	15823474	253,5
5	Da'volar bo'yicha debitor qarzdorlik	5332309	5332309	5540010	207701	103,9
6	Pul mablag'lari	60554	79533	116107	55553	191,7

O'zgeoburg'üneftgaz' shu'ba korxonasi 2012-2014 xo'jalik yillardagi debitorlik qarzlari va pul mablag'lari tahlil qiladigan bo'lsak debitor qarzlari 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 35385345 ming so'mga ko'paygan va o'sish surati 218,3 foizni tashkil etgan. shuningdek Xaridor va buyurtmachilar qarzi 2012 yilda 24048951 ming so'mni, 2013 yilda 30792543 ming so'mni, 2014 yilda 33626651 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 139,8 foizni tashkil etgan. Korxonaning boshqa debitorlik qarzlari 2012, 2013 yillarda 10307337 ming so'mni, 2014 yilda 26130811 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 253,5 foizni tashkil etgan. Korxonaning pul mablag'lari salmog'i ham yildan yilga o'sib borgan, xususan 2014 yilda pul mablag'lari 2012 yilga nisbatan 55553 ming so'mga ko'payib foiz hisobida 197.7 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

2.2.2 diagramma

Korxonaning pul mablag'lari dinamikasi



Korxonaning pul mablag'lari salmog'i ham yildan yilga o'sib borgan, xususan 2012 yilda ming so'mni, 2013 yilda 79533 ming so'mni, 2014 yilda 116107 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 197.7 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

2.2.3 jadval

“O'zgeoburg'neftgaz” shu'ba korxonasining o'z mablag'lari manbalari xaqida ma'lumot⁴

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Yillar			O'zgarishi (+,-) 2014 yilda 2012 yilga nisbatan	O'zgarishi (%) 2014 yilda 2012 yilga nisbatan
		2012	2013	2014		
1	Ustav kapitali	523455	523455	523455	0	100,0
2	Rezrv kapitali	160375	240451	307325	146950	191,6

⁴ Manba Korxonaning hisobot ma'lumotlari

3	Joriy kreditorlik qarzlari	30118125	46591174	66143086	36024961	219,6
4	Olingan bunaklar	190591	191068	465099	274508	244,0
5	Mexnatga xaq to'lash bo'yicha qarz	121275	212903	270167	148892	222,8
6	Boshqa kreditorlik qarzlari	69452	75947	97855	28403	140,9

“O‘zgeoburg‘uneftegaz” shu‘ba korxonasi 2012-2014 xo‘jalik yillardagi o‘z mablag‘larini tahlil qiladigan bo‘lsak korxonada 2012-2014 yillarda Ustav kapitali 523455 ming so‘mni etgan. Korxonaning Rezrv kapitali 2012 yilda 160375 ming so‘m, 2013 yilda 240451 ming so‘mni, 2014 yilda esa 307325ming so‘m tashkil etgan, tahlil qilib ko‘rganimizda 2014 yilda 2012 yilga nisbatan rezerv kapitali 146950 ming so‘mga, yoki 191,6 foizga ko‘paygan. Korxonaning joriy kreditorlik qarzlari 2012 yilda 30118125 ming so‘mni tashkil etgan, 2013 yilda 46591174 ming so‘m, 2014 yilda 66143086 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lib 2012 yilga nisbatan 36024961 ming so‘mga yoki 219.6 foizga ortgan. Korxonaning mexnatga xaq to‘lash bo‘yicha qarzlari 2012 yilda 121275 ming so‘m bo‘lib, 2013 yilda 212903 ming so‘mni tashkil etgan, 2014 yilda 270167 ming so‘m bo‘lib, 2012 yildagiga nisbatan 148892ming so‘mga yoki 222.8 foizga ortiqdir. Boshqa kreditorlik qarzlari salmog‘i 2012 yilda 69452ming so‘mni, 2013 yilda 75947ming so‘mni, 2014 yilda esa 97855 ming so‘mni tashkil etgan, bu esa 2012 yilga nisbatan 28403 ming so‘mga yoki 140.9 foizg ko‘pdir. Bundan ko‘rinib turibdiki hisobot davrida korxonaning mehnatga xaq to‘lash bo‘yicha qarzlari va kreditorlik qarzlari doimiy ravishda o‘sib borgan.

2.2.4-jadval

“O‘zgeoburg‘uneftegaz” shu‘ba korxonasining 2012-2014 xo‘jalik yillardagi umumiy daromadi haqida ma‘lumot (ming so‘m hisobida)⁵

		Yillar			O‘zgarishi (+,-) 2014 yilning 2013 yilga nisbatan
		2012	2013	2014	
1.	Mahsulot sotishdan sof tu shum	37889855	37533680	49520143	11630288
2.	Asosiy faoliyatdan boshqa tu shum	101689	1291573	453257	351568
3.	Sotilgan mahsulotlar tannarxi	31963525	28112895	44580198	12616673
4.	Davr xarajatlari	4476271	4301124	4962725	486454
5.	Daromad solig‘i	345958	797846	236915	-109043
6.	Foydadan boshqa soliqlar	96454	449075	15502	-80952

“O‘zgeoburg‘uneftegaz” shu‘ba korxonasining 2012-2014 xo‘jalik yillardagi umumiy daromadlarini tahlil qiladigan bo‘lsak korxonada 2012 yilda mahsulot sotishdan sof tu shum 37889855 ming so‘mni etgan bo‘lsa, 2013 yilda 37533680 ming so‘mni tashkil etgan, 2014 yilda esa 49520143 ming so‘m bo‘lgan, bu 2013 yilga nisbatan 11630288 ming so‘m ko‘p, ya‘ni korxonada mahsulot sotishdan sof tu shum ortgan. Korxonaning asosiy faoliyatdan boshqa tu shum 2012 yilda 101689 ming so‘m, 2013 yilda 1291573 ming so‘mni tashkil etgan, 2014 yilda esa 453257 ming so‘m bo‘lgan, tahlil qilib ko‘rganimizda 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 351568 ming so‘mga ko‘paygan. Korxonada sotilgan mahsulotlar tannarxi 2012 yilda 31963525 ming so‘mni tashkil etgan, 2013 yilda 28112895 ming so‘m bo‘lgan, 2014 yilda 44580198 ming so‘mga ko‘paygan, bu esa 2012 yilga nisbatan 12616673 ming so‘mga ortgan. Korxonada davr xarajatlari 2012 yilda 4476271 ming so‘m bo‘lib, 2013 yilda 4301124

⁵ Manba Korxonaning hisobot ma‘lumotlari

ming so‘mni tashkil etgan, 2014 yilda 4962725 ming so‘m bo‘lib, 2012 yildagi davr xarajatlariga nisbatan 486454 ming so‘mga ortiqdir. Korxonada daromad solig‘i 2012 yilda 345958 ming so‘m bo‘lgan, 2013 yilda 797846 ming so‘m, 2014 yilda esa 236915 ming so‘mni tashkil etgan, bu esa 2012 yilga nisbatan 109043 ming so‘mga kamaygan. Bunga sabab mamlakatimizda yuridik shaxs lardan olinadigan foyda solig‘ini stavkalari ahamiyatli darajada pasaytirib borilayotganligidir. Foydadan boshqa soliqlarni tahlil qilib ko‘rganimizda ularning ham yil sayin pasayganini 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 80952 ming so‘mga kamayganini ko‘rishimiz mumkin. Ishlab chiqarish korxonalarini faoliyati moddiy va mehnat xarajatlari bilan bog‘liq. Quyidagi jadvalda biz “O‘zgeoburg‘uneftegaz” shu’ba korxonasiining 2012-2014 xo‘jalik yillaridagi umumiy xarajatlari tarkibiy tahlilini amalga oshirdik.

2.2.5-jadval

“O‘zgeoburg‘uneftegaz” shu’ba korxonasiining 2012-2014 xo‘jalik yillardagi umumiy xarajatlari tarkibiy tahlili(ming so‘m)⁶

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Yillar			O‘zgarishi (+,-) 2014-2012
		2012	2013	2014	
1.	Sotilgan mahsulotlar tannarxi	14018044	28112895	44580198	30562154
2.	Davr xarajatlari. Jumladan:	2243754	4301124	4962725	2718971
	a)ma’muriy xarajatlar				400517
	b)boshqa	165232	578661	565749	
	operatsion xarajatlar	2078522	3722463	4396976	2318454

⁶ Manba Korxonaning hisobot ma’lumotlari

3.	Daromad solig'i	345958	797846	236915	-109043
4.	Foydadan boshqa soliqlar	96454	449075	15502	-80952

“O‘zgeoburg‘uneftegaz” shu’ba korxonasi 2012-2014 xo‘jalik yillaridagi umumiy xarajatlarning tarkibiy tahlilini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, korxonada sotilgan mahsulotlar tannarxi 2012 yilda 14018044 ming so‘mni tashkil etgan, 2013 yilda 28112895 ming so‘m bo‘lgan, 2014 yilda esa 44580198 ming so‘m bo‘lib, 2012 yilga nisbatan 30562154 ming so‘mga ortgan. Davr xarajatlari 2012 yilda 2243754 ming so‘m bo‘lgan, 2013 yilda 4301124 ming so‘m bo‘lgan, 2014 yilda 4962725 ming so‘mni tashkil etgan, bu esa 2012 yilgi davr xarajatlaridan 2718971 ming so‘mga ko‘p. Davr xarajatlari jumlasiga ma‘muriy va boshqa operatsion xarajatlar kiritilgan bo‘lib, korxonada 2012 yilda 165232 ming so‘m, 2013 yilda 578661 ming so‘m, 2014 yilda ma‘muriy xarajatlar 565749 ming so‘mni tashkil etgan, bu esa 2012 yilga nisbatan 4000517 ming so‘m ko‘p. Korxonaning boshqa operatsion xarajatlari 2012 yilda 2078522 ming so‘m, 2013 yilda 3722463 ming so‘mni, 2014 yilda 4396976 ming so‘mni tashkil etgan. 2014 yilni 2013 yilga nisbatan o‘zgarishini tahlil qilsak, 2318454 ming so‘mga ko‘payganini ko‘ramiz, bu esa yildan-yilga nisbatan oshib borgan.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik vatexnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko‘lamda amalga oshirilishi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq bu boradagi jiddiy muammo-ayrim mahsulotlarimiz tannarxining yuqori darajada qolayotganligi ularning raqobatdoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi (2009 yil 28 noyabr) 4058-sonli Farmonida muhim chora-tadbirlar qatorida mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarining barcha resurslardan samarali foydalanishi hisobiga mahsulot tannarxini 20 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda pasaytirish orqali ularning raqobatdoshligini

ta'minlash vazifasi ham belgilab berilgan edi "O'zgeoburg'neftgaz" shu'ba korxonasi jamoasi va rahbariyati neft va tabiiy gaz konlarini qidirib topish va ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish bo'yicha qator ishlarni amalga oshirmoqda.

2.3 "O'zgeoburg'neftgaz" shu'ba korxonasining boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi tahlili

Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo'lish va shu orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish Vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashning muhim Shartlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun esa eng avvalo iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish zarur bo'ladi. shunga ko'ra, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Sharoitida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash dolzarb ahamiyat kasb etib, respublikamizda ushbu jarayon bir qator asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi. Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari ayniqsa, real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlashda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutdi.

Biz tahlil qilayotgan "O'zgeoburg'neftgaz" shu'ba korxonasi ham real sektor korxonalaridan bo'lib, uning samarali faoliyat ko'rsatishida korxonaning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish katta ahamiyat kasb etadi. "O'zgeoburg'neftgaz" shu'ba korxonasining tashkiliy tuzilmasi barcha aksiyadorlar jamiyatlariniki kabi oliy organ, kuzatuv kengashi, ichki audit, ijro organidan tashkil topgan.

Bizning korxonaga taklifimiz kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yish. Ma'lumki, mehnat taqsimoti va unga bog'liq ravishda mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashish mehnat unumdorligini o'stirish, tayyorlanayotgan mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini kamaytirish uchun imkoniyat yaratadi. Ayni paytda, u yoki bu mahsulot turiga ixtisoslashish ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun xom ashyo, butlovchi qismlarni boshqa ixtisoslashgan korxonalardan sotib olish ehtiyojini keltirib chiqaradi. shu tariqa korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini o'rnatishga zarurat yuzaga keladi. Bugungi kunda kooperatsiya aloqalarning xom ashyo yetqazib

berishdan iborat oddiy ko‘rinishidan tortib to franchayzing tizimini qo‘llash kabi murakkab turlarigacha mavjud. “Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, korxonalar o‘rtasida barqaror kooperatsiya aloqalarini o‘rnatish va ularni kengaytirish bo‘yicha boshlangan ishlarni davom ettirish, bu jarayonga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini keng jalb etish zarur. Respublika sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi ishini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish lozim.” □ Korxonalarning bozorlarda qaysi mahsulot yoki xom ashyoga ehtiyoj borligini bilishlari, uni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishlari uchun zarur bo‘lgan materiallar va xom ashyoni qaysi korxonalardan olishlari mumkinligi to‘g‘risida axborotga ega bo‘lishlari ularning rivojlanishi, umuman mamlakat iqtisodiyotining yuksalishida muhim omil hisoblanadi. Bundan tashqari biz korxonada modernizatsiyalash ishlarini amalga oshirishni takomillashtirishni taklif etamiz. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, qo‘lga kiritilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarning asosida iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonining o‘rni ahamiyatli hisoblanadi. shunga ko‘ra, hozirda modernizatsiya jarayonining nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Eng avvalo, modernizatsiya atamasining mazmuniga to‘xtaladigan bo‘lsak, odatda uni texnika, texnologiyaga oid tu shuncha deb qaraladi. Jumladan, iqtisodiyotga oid aksariyat lug‘atlarda unga quyidagi mazmundagi ta’rif beriladi: “Modernizatsiya-obyektni yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va meyorlarga, texnik shartlarga, sifat ko‘rsatkichlariga muvofiqlashtirish. Asosan mashina, asbob-uskunalar, texnologik jarayonlar modernizatsiyalanadi”. □ Fikrimizcha, bu modernizatsiyaga tor ma’nodagi yonda shuv bo‘lib, bugungi kunda uning keng ma’nodagi mazmuni tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Modernizatsiya-an’anaviy jamiyatning ilg‘or, industrial jihatdan taraqqiy etgan jamiyatga aylanishini ta’minlovchi ijtimoiy-tarixiy jarayon. “Modernizatsiyaning keng ma’nodagi mazmunini tu shunishda iqtisodchi olim R. Nureyev uning neoklassik va keynscha talqinlarini farqlaydi. Jumladan, neoklassiklar tomonidan modernizatsiyaga xususiy mulkchilik va demokratiyani mutahkamlash sifatida yondashilsa, keynschilar tomonidan, eng avvalo, xo‘jalikning asosiy tarmoqlarini qamrab oluvchi tarkibiy o‘zgarishlar sifatida tu

shuniladi. Dastlabki o‘ringa texnik-iqtisodiy muammolar qo‘yiladi. Xo‘jalikning zamonaviy tarmoqlarining mavjud bo‘lmasligi taraqqiyotning asosiy to‘sqinlik kuchi sifatida qabul qilinadi”. □

Umuman olganda, modernizatsiya an’anaviy jamiyatdan industriallashtirilgan, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga hamda ijtimoiy jarayonlarni qonunlarga tayangan holda oqilona boshqarishga asoslangan jamiyatga o‘tish jarayonlarini namoyon etadi. Nazariyada modernizatsiya deganda “an’anaviy tarzda yopiq jamiyat”ga qarama-qarshi o‘laroq “zamonaviy ochiq tarzda jamiyat”ni shakllantirishga olib keluvchi industriallashtirish, sekulyarlashtirish, urbanizatsiya, umumiy ta’lim, vakolatli siyosiy hokimiyat tizimlarining qaror topishi, hududiy va ijtimoiy safarbarlikning kuchayishi kabi jarayonlarning majmui tu shuniladi.

Bundan ko‘rinadiki, modernizatsiya juda keng tu shuncha bo‘lib, bugungi kunda uni jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o‘zgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilg‘or andozalar tomon yo‘naltirish va takomillashtirish jarayonlarining majmui sifatida ifodalash mumkin. Bugungi kunda modernizatsiyalash jarayonlari mamlakatimiz hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan. Ayniqsa, mazkur yo‘nalishlar orasida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash muhim o‘rin tutadi. YA’ni, barcha soha va jabhalar o‘rtasida jadal isloh etish va modernizatsiyalash jarayonlarining amalga oshirilishida izchillik va mantiqiy muvozanatni ta’minlashga harakat qilish lozim. shu o‘rinda modernizatsiyalash jarayonining amalga oshishiga hissa qo‘shish lozim. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari va vositalaridir.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko‘rinadiki, korxonalarni yangilash va modernizatsiya qilish zamon talabidir. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar qatorida munosib o‘rin egallash, milliy mahsulotlarimizning jahon bozorlaridagi raqobatdoshligini ta’minlash, shu asosda eksport hajmini sezilarli darajada oshirish mavjud soha va tarmoqlarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash asosida modernizatsiyalashni taqozo etadi. Ayni paytda, jahon bozoridagi ehtiyojva talabning o‘zgarishini hisobga olgan holda iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilmasini takomillashtirib borish, bu maqsadda yangi, zamonaviy tarmoqlarni barpo etish va jadal rivojlantirish lozim bo‘ladi.

III bob. Mamlakatni modernizatsiya qilish Sharoitida boshqaruvning zamonaviy tuzilmalarini tanlash va iqtisodiy samaradorligini oshirishni takomillashtirish.

3.1. Boshqaruv tuzilmasiga quyilgan talablar va ularni belgilovchi omillar.

Korxonani u yoki bu tuzilmasini tanlashda qanday omillar ta'sir ko'rsatadi? Nima uchun bir korxonada vazifaviy qattiq tuzilmayu, boshqasi esa o'z menejmentini kunikish, matrik, loyihali yoki vengurli tuzilmaga suyanib ko'radilar?

G'arb menejmenti nazariyasida bu kabi omillarning 3ta guruxini ajratib ko'rsatish mumkin.

3.1.1 rasm

Ichki	Tashqi	Umumiy
1. Murakkablik	1. Tashkilot strategiyasi	1. Hukmronlik va nazorat samarasi
2. Rasmiyatchilik	2. Tashkilot o'lchami	2. Axborot jarayonlarini kompyuterlashtirish
3. Markazlashtirish	3. Texnologiya (mahsulot)	
4. Boshqarish meyori	4. Tashqi muhit	

Korxonadagi birinchi gurux o'z ichiga menejment quyidagi tavsiflarini oladi: murakkablik, rasmiyatchilik, markazlashtirish, boshqarish meyori (nazorat sohasi). Tuzilmaga ta'sir etuvchi ikkinchi guruxni biz Shartli ravishda umumiy omil deb aytamiz. Ammo birinchi guruhga nisbatan ularni ma'lum darajada tashqi yoki dastlabki omil hisoblaydilar. Faqat ulargina tuzilmani tanlashda asosiy hisoblanadilar. Bo'lar: korxonaga strategiyasi, mahsulot yoki texnologiya turi, tashqi muhit va tashkilot o'lchami.

Ichki omillar guruhi. Bu guruhdan uchta elementni biz yuqorida kurdik va shunday natijaga keldikki, ular o'zining u yoki bu birlashishida korxonaning tashkiliy tuzilmasini mexaniq, qattiq tuzilmaga yoki organik ko'nikish tuzilmasiga to'g'ri kelishini belgilaydi. Xuddi shu ko'rsatgichga «boshqaruv meyori» yoki «nazorat sohasi» tavsiflari yaqinlashadi.

«Boshqaruv meyori»□ deganda bitta rahbar samarali boshqara oladigan bo'g'in to'zumchalari soni tu shuniladi. shu son haqidagi savolga bitta an'anaviy javob – 5-7 nafar kishi. Ammo «Boshqaruv meyori» muammosi unchalik oddiy emas.

Nazorat sohasi nuqtai nazaridan menejmentning klassik nazariyasi klassik vazifaviy tuzilma bilan o'zaro bog'lanish uchun muhimdir. Har qanday sondagi xizmatchi unga buysinishi va uning saviyasining sonini qurishiga bog'liq. Qanchalik nazorat meyori ham bo'lsa, shunchalik bu tuzilmaning saviyasini soni ko'p bo'ladi. Faraz qilishni foydasi shundaki, nazorat meyorining pastligi, bu tuzilmadagi xizmatchilarning samaraliroq ishlashiga imkon yaratadi. shu bilan birga u rahbarlar sonini ko'payishiga olib keladi va bir oz qimmatroq turadi.

Menejment taraqqiyotining hozirgi davrida, ko'plab tashkilotlar (korxonalar, korporatsiyalar) boshqaruv meyorini oshirmokdalar va 10-12 nafar kishi bitta rahbarga to'g'ri keladi. Bu muntazam tuzilmani oddiyla shuvi bilan yoki yangi ko'nikish tuzilmalariga o'tish bilan bog'liqdir. Masalaning doimiy tomoni ham o'ta muhim hisoblanadi, ya'ni raxbar va uning qul ostidagilarni katta va past nazorat meyorlari tuzilmasida o'zini qanday sezidirishi va o'tishi muhim hisoblanadi.

Xizmatchilarning axloqi bir ma'noda emas. U katta miqdorda insonning tavsifiga bog'liq. Faol odamlar, erkinlikni sevuvchilar raxbarni nazoratidan o'zoqroqda ishlashni yoqtiradilar, ya'ni qayerda nazorat sohasi keng bo'lsa. shu bilan birga shunda toifadagi ishlovchilar borki, ular rahbar tomonidan qattiq bo'lgan bevosita nazoratli tuzilmada ishlashni xush ko'radilar. Ular nazorat ostida o'zlarini yaxshi sezadilar.

Nazorat meyori mexnatkashlarning ma'lumoti va akliy potentsiali bilan bevosita bog'liq. U kanchalik yukori bo'lsa, shunchalik nazoratni talab qiladi.

Menejmentning u yoki bu boshqaruv meyorini tanlashda yana quyidagilar ta'sir ko'rsatadi: yechilayotgan masalalarning murakkabligi va bir xilligi, ularni ahamiyat darajasi, insonni jismoniy xolati, tashkilotda kabo'l qilingan menejment usuli va boshqalar.

Ikkinchi gurux omillari korxonaning tashkiliy tuzilmasini tanlashda va Shakllantirishda birlamchi bo'lib xizmat qiladilar.

Menejment nazariyachilari "strategik tuzilma" munosabatlariga ustivorlik beradilar. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi zamon menejmentida tartib kurilishni eng asosiy korxonaning quyidagi uchta turdagi strategiyasini tanlab olishga bog'liq: innovatsiya trategiyasi, harajatlarni kamaytirish strategiyasi yoki har ikkola ilgargi strategiyalarni asosiy belgilarni kamrab oluvchi strategiya.

Innovatsion strategiyali korxonalar organik, norasmiy va markazlashgan tuzilmaga ega. Masalan: korporatsining "ZM"strategiyasi mahsulot kiymatini pasaytirishni muljal barkarorlikka extiyoj sezadilar.

Misol: dunyoga taniqli korporatsiyadan biri "Raydez Daydjest". Korxonalarning uchinchi toifasiga ya'ni aralash tuzilmaga ega – mexaniq va organik tuzilmalar birlashmasi. Misol: "IBM", "Jeneral Motors", "Kraysler" va boshqalar.

Tashkilot ulchamining tuzilmasiga buning ta'siri yukorida kurilgan tuzilmalar tavsifi bilan bog'liq: murakkablik, rasmiylik va nomarkazlashish. Tabiiyki, faraz qilinsa korxonona yoki korporatsiya bir necha yuz ming xizmatchilarga ega bo'lsa, unda u murakkab tuzilmaga, ya'ni, katta sondagi yoki divizional bo'linmalariga ega bo'ladi. Bu tuzilmaning mexaniq turidir. Murakkab vaziyatdan chiqishning yagona yuli – organik tuzilmani integratsiya qilishdan iboratdir. Tashkilot ulchami va markazlashgan oraligida salbiy bog'liqlik bor. Agar korxonona uncha katta bo'lmasa oliy menejment barcha turdagi nazoratlarni bajarish kiyin, shuning uchun vaqillikning birqismini quyi saviyalarga berishga majbur bo'ladi.

Ishlab chiqarish texnologiyasini korxonaning tashkiliy tuzilmasiga ta'siri birinchi darajdali omil deb hisoblanadi. Texnologiya - bu birlachi mahsulotni xirisiga aylantirish jarayonidir. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, aniq tashkilotning menejment

tuzilmasi ikkita tavsifiga, operatsiyalarning takrorlanish darajasiga va mahsulotning turiga bog'liq.

Standart va avtomatlashtirilgan operatsiyalardan iborat texnologiyalar sermexnat deb ataladilar. Bu tovarlarni ko'plab ishlab chiqaruvchi o'zluksiz ishlab chiqarishdir (pulat, neft mahsulotlari).

Donali tovarlarni ishlash texnologiyasi bir necha turli-tuman operatsiyalardan tashkil topgan bo'lsa, kam mexnat deb ataladi. Kam mexnatli texnologiyaga murakkab, yangi va yukori sifatli ishlab chiqarish texnologiyasi xam kiradi.

Sermexnat texnologiyali korxonalar asosan byurokratik tuzilmaga ega bo'ladi, chunki takrorlanish bo'limlar sonini vertikal va gorizontal uki bo'yicha oshiriliga imkon yaratadi. Bu kabi tashkilotlarda katta sondagi koidalar ko'rsatkichlar va boshqa tavsifdagi xujjatlar mavjud. Uncha katta bo'lmagan ishlab chiqarish bilan band korxonalarda markazlashtirish darajasi yukoridir.

3.1.2 rasm

Texnologiyani tuzilma bilan va uning tavsifi bilan bog'liqligi.

	Donabay ishlab chiqarish	Ko'plab ishlab chiqarish	O'zluksiz ishlab chiqarish
Tuzilma tavsifi	Quyvertikal taksimlanish. Quygorizontal taksimlanish. Past darajadagi rasmiylik	Urtachavertikal taksimlanish. Kattagorizontal taksimlanish. Yukori darajadagi rasmiylik	Kattavertikal taksimlanish. Kasbgorizontal taksimlanish. Past darajadagi rasmiylik
Yukori samarali tuzilma	organik	organik	organik

Yukorida aytib utkanimizdek, kam mexnat texnologiya organik tuzilmali tashkilotlarda ishlatiladi.

Biz kurib chikkan omillarni eng sunggisida yangi korxonaning tuzilmasiga tarof muxitning kanday ta'sir ko'rsatishiga uxtalib utamiz. shuni aniqlab olishimiz kerakki, atrof muxit deb tashgki muxitning reaktiv – tezkor o'zgarishi Sharoitida korxonaning menejmentni bu kabi xolatlarda kunikish uchun ichki tuzilmalarga, birinchi navbatda, yashash uchun katta diqqat-e'tiborini qaratishga majbur. Tashqi muxit kanchalik oldindan aytib beriladigan dinamik va murakkab bo'lsa, shunchalik byurokratik tuzilmalar almashadilar yoki o'z ichiga organik tuzilmalarni oladilar.

«Xukmronli - nazorat» omili ba'zi bir menejment izlanuvchilari shuni ta'kidlaydiki, amalda korxonalar yoki korporatsiyalarning tashkiliy tuzilmalarni 40 -50 % u shub omilga bog'liqdir. Bu xolatda tashkiliy tuzilmalar korxonaning hukmronligi uchun ichki kurash nazoratida bo'ladilar. Bu borada menejerlar korxonaning maqsadi urniga o'z bo'limlari yoki shaxs iy manfaatlarni ko'zlab ish kuradilar.

Korxonaning tashkiliy tuzilma tanlashiga ta'siro ko'rsatuvchi omillarining eng sunggisi - bu axborot jarayonlarni kompyuterlashtirishdir.

Xozirgi zamon Garb biznesining nazariyasi va amaliyoti shuni ko'rsatadiki, kompyuter texnikasining keng ishlatilishi organik tuzilmasining ajralmas qismidir. Boshqaruvda kompyuterlashtirish menejerlar va bo'linmalar orasidagi gorizontaal alokalarni zaruriy axborotdan bevosita foydalanish imkoniga egaligi, ularning taraqqiyotiga imkon yaratadi. Texnik jixatidan bu shu ma'noni bildiradiki, menejerlar o'zlarining shaxs iy kompyuterlari bilan bir-birlariga mahsus masalalarni yechishda tez bog'lanadilar. Axborotni kompyuterlashtirish – bu organik tuzilmasining bo'linmalari orasidagi aloka usulidir: mahsulot bilan, venchurlar bilan, innovatsiya mutaxassislarni bo'linmalari bilan va boshqalar.

Kompyuterlar va axborotning kompyuterizatsiyalanganligi menejment korpusining oliy zvenosiga pastki saviyalarida nimalar sodir bo'layotganligi xaqida bilib borishiga, o'zgarishlar kiritishiga kumaklashadi.

3.2 Boshqaruvning iqtisodiy samaradorligini oshirishni takomillashtirish .

G'arbiy adabiyotda «Tuzilmani takomillashtirish» termini qoida bo'yicha ishlatilmaydi. Bu tu shuncha neytralroq so'zlar bilan, masalan: tuzilmani o'zgartirish, tuzilmani almashtirish, tuzilma tanlash, integratsiya qili Shva

boshqalar bilan beriladi.ular o‘zlarida turli tashkilot boshqaruv tuzilmasini takomilla shuv darajasini olib boradilar.

Boshqaruvning tuzilma soxasidagi o‘zgarishlar va alma shuvlar – bu ishbilarmolar dunyosida doimiy jarayondir. Va har kandy ashqilotda menejer faolimyaidan eng asosiy tavsifidir, o‘zgarishlarning asosiy dastali – bu ilmiy texnika taraqqiyoti va rakobatdir.

So‘nggi o‘n yillikda tashkiliy tuzilmani yaxlitlanishini ko‘payishi hisobiga korxona va korporatsiyalar o‘zokka chidamli bo‘lib keladi. Avval ular bir necha avlodlar davrida xam o‘zgarmay kolar edi. Hozirda esa, g‘arb biznes izlanuvchilari va amaliyotchilarni ta‘kidlashicha, kompaniya katta qayta qurish ishlarini tamomlashi bilan yangisini boshlash zarurati tugiladi.

AQSH, G‘arbiy Yevropa va Sharqning urtasida industrial davlatlari korporatsiya va korxonalar boshqaruvining tuzilmasini har 3-5 yilda o‘zgartirib turadilar. shunday xolatlar ma‘lumki, yirik korxona raxbarlari o‘zlaridagi tashkiliy tuzilmalarni oshkor qilishdan shu vaktga kelganda axborotni eskirib kolishini ko‘zda tutib va kechganlar.

Boshqaruv tuzilmasini qayta tashkil qilishning usullari, Shakllari turli-tumandir. Ularni birinchi yunalishlariga jamlash mumkin:

tuzilmalarni ichki oddiyashtirishlar hisobiga takomillashtirish;

byurokratik turdagi tuzilmani organik tuzilmasiga almashtirish;

amaldagi byurokratii tuzilmalarni organik tuzilmalar bilan birlashtirish;

kuramalar yaratish;

kelajakda bo‘lishi mumkin bo‘lga tuzilmalar – moduli va atamistik tashkilotlar.

Birinchi uchta yunalish bo‘limning oldingi qismida aks ettirilgan.

1.Tuzilmani oddiyashtirish hisobiga takomillashtirish. Bu muntazam tuzilmalarni boshqaruv saviyalari sonini kamaytirish hisobiga yassirok

tuzilmalarga aylantirish. Soʻngisi koʻproq boshqaruvni nomarkazla shuvi va mnejsmentni quyi saviyalariga xuquq berishi hisobiga amalga oshiriladi.

Bu kabi qayta qurish qullanmalari shunchalik atigi, ularni toʻla maʼnoda inqilobiy deb atash mumkin. Misol uchun taniqli korporatsiya «Jeneral Motors»da 20-chi yillarda Alfred P. Sloun tomonidan markazlashtirish utkazilgan. Xudi shu kabi qayta qurishlar bir kator yirik korporatsiyalar: «Jeneral elektrik», «Dyupon» va boshqalar utkazilgan.

Korporatsiyalarda tuzilmani soddalashtirish Shtab boʻlimlarini divizional boʻlinmalar sonini kiskartirish yoki murakkab tuzilmani oddiyrogiga almashtirish hisobiga amalga oshiriladi. Masalan, baʼzi bir uncha katta boʻlagan korxonalar matritsali tuzilmada uning murakkabligi uchun voz kechib muntazam vazifaviy tuzilmaga utmokdalar.

Yana shuni aytish lozimki, «tuzilmani soddalashtirish» tu shunchasi

Unchalik turgʻun emas. U korxonaning aniq ishlash Sharoitiga, tashqi, vaqtinchalik, fazoviy va boshqalariga bogʻliq. Baʼzi bir korxonalar uchun oddiy hisoblangan tuzilma boshqalar uchun murakkab boʻlishi mumkin. Bitta korxonaga uchun uning har xil taraqqiyoti davrida bitta tuzilma oddiy yoki murakkab boʻlishi mumkin. Misol tarikasida «Jeneral Motors» korxonasini keltirish mumkin. U 1984 yilda Slaun omonidan nomarkazlashtirilgan, sung 20 yil oʻtgandan keyin oʻzining bir qismini qayta tashkil qildi, va un markazlashtirdi. Qayta tashkil qilishni har xil turdagi avtomobillar chiqaruvchi boʻlimlar sonini beshtadan uchtagacha kamaytirish hisobiga amalga oshirdi.

2. Byurokratik turdagi tuzilmani organik tuzilmaga almashtirish. Bu boshqaruv tuzilmasni qayta qurishni koʻproq radikal usulidir. Uni korxonaning favquloddagi xollarida, uning xayotiy faoliyatiga xuruj qilganda ishlatadilar. Avval taʼkidlaganimizdek, shunday qayta qurish uchun komanlaga kuchli sardor kerak. Tirik inson boʻlib Kraysler korporatsiyasidagi mashxur AKSH menejeri Li Yakokka hisoblanadi. U 1978 yilda kompaniyaning prezidenti lavozimiga kutarilgan.

3. Byurokratik tuzilmalar ichida har xil Shakldagi organik tuzilmalarni bunyod etish. Bo‘lar venchur, innovatsiya bo‘limlar, biznes-markazlar, brigada tuzilmalari, ekspert guruhlarini tashkil qilish kerak. Tarakkiy topgan davlatlarning hozirgi zamon boshqaruvi ularning zarurligini va korxonaning samarali faoliyati uchun birlamchi Sharoit ekanligini yaxshi anglaganlar.

Tuzilmani ilg‘or usulda to‘zishni yana bir misoli bu «ZM» korporatsiyasini tashkiliy tuzilmasidir. U mahsulot koidasi bo‘yicha kurilgan bo‘lib, bu kabi har bir bo‘limda mahsulot taraqqiyoti yoki texnologik jarayonni taraqqiyot uchun loyixa guruxi mavjud.

4. Konglomerat tuzilmani bunyod etish. «Konglomerat» tu shunchasi har xil turdagi elementlarni birlashtirilishini bildiradi.

Konglomeratli tuzilma bo‘limlari har xil belgilar bilan ko‘rsatilgan korxonalarda mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan, bittasida vazifaviy tuzilma ishlatilsa, ikkinchisida divizional tuzilma, xuddi shu tamoyil bo‘yicha boshqasida matritsali tuzilma ishlatiladi. shu bilan birga konglomerat bo‘lib uta katta korporatsiyalar hisoblanadi, ular o‘z ichiga unglab deyarli erkin korxonalarni, korxonalarni oladi. Bunday korporatsiyalarning oliy menejmenti koida bo‘yicha, o‘zida moliyaga raxbarlik qilishni saklab koladi.

Ko‘pchilik konglomeratlar fakat ichki usish hisobiga yuzaga kelmasdan, balki boshqa korxonalarining kushilishi hisobiga yuzaga keladi. Misol sifatida quyidagi gigantlarni keltirish mumkin: «Ay Ri Ay», «Ashvetti», «Samsung», «Pepsiko» va boshqalar.konglomerat raxbariyat har bir o‘zining tuzilmasiga korxonaga tuzilmasini tanlab olishga imkon yaratadi. Agar birorta korxonam samarasiz ishlasa, uni tashkilot uchun to‘la zararsiz sotib yuborish mumkin.

5.Moduli va «adxokratik» tashkilotlar – bo‘lar balki kelajak tuzilmalardir. Kurib chiqilgan boshqaruvning tashkiliy tuzilmalarni qayta kuri Shva uning taraqqiyotini o‘zok davrini o‘z ichiga kamrab oladi, shu jumladan, oxirgi un yillikni xam. shu bilan birga barcha izlanuvchilar, mutaxassilar, amaliyotchilar jamoa ishlab chiqarishning 90-yillardagi taraqqiyotini baxolanishini sifat bo‘yicha yangi hisoblaydilar.

Keyingi bosqich – industrial bosqichdan axborot bosqichiga utishda ular bir xil fikr yuritadilar. Bu ishlab chiqarishning inqilobiy qayta kurilishi bo‘lsa, olimlarning oldindan buriladigan ma’lumotiga qaraganda, menejment tuzilmasida xam inqilobiy qayta qurishni uygotish kerak. «Jeneral Elektrik» korporatsiyasining boshqaruv raisi Dj. Uelchning aytishicha, 90-yillardagi tezkor o‘zgarishlar 80-yildagiga qaraganda bizlar uchun geyoki saylgox bo‘ylab sayr qilish kabi tuyiladi. Borgan sari raqobat tobora Shavqatsiz bo‘lib boradi. Takomilla shuv saviyasi, intilishimiz sayin yuqorilashib boradi.

Olimlarni oldindan aytgan gaplariga qaraganda, jamiyat tarakiyotining axborot davr bosqichi yoki superindustrial sivilizatsiyasida byurokratiya yangi Shakldagi tashkilot bilan almashadi. Bu esa, korxonalar modullarni birlashmasi bo‘lib, ularga bo‘lgan talabga asosan bunyod etiladi va yo‘qotiladi.

Xulosa va takliflar

“Iqtisodiyotni modernizatsiyalash Sharoitida tarmoqni boshqarishning zamonaviy tuzilmalarini ishlab chiqish.” (“O‘zgeoburg‘uneftgaz” AK misolida) bitiruv malakaviy ishi bo‘yicha xulosa va takliflarimizni keltiradigan bo‘lsak.

Korxonaning faoliyatini jadallashtirish maqsadida korxonada tashqi kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish kerak.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirib, mamlakatni modernizatsiya qilish Sharoitida boshqaruvning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Korxonada faoliyatini takomillashtirish va ortiqcha harajatlarni qisqartirish maqsadida korxonadagi bo‘lim va sexlarning ishlarini o‘rganib chiqib, boshqaruv apparatini qisqartirish lozim deb hisoblaymiz.

Sanaot korxonalarida boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirish tadbirlarini baholashda, korxonaning ishlab chiqarish natijalarini ta‘sir etishiga qarab o‘tkazilishi maqsadga muvofiq.

Tashkilot funksional bo‘linmalarining maqsadlari va vazifalari tashkilotning umumiy maqsad va masalalariga mos kelishini ta‘minlash

Korxonada ishlab chiqarishni modernizatsiyalashni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari va vositalarini ishlab chiqib jadallashtirish lozim, ya‘ni korxonada eskirgan asbob-uskunalarini chiqarish, ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish, ishlab chiqarish harajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash, sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish, chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish.

Keltirilgan takliflarimizni korxonada o‘z faoliyatida imkoniyatlaridan kelib chiqib, to‘g‘ri yo‘lga qo‘ysa, boshqaruv samaradorligini oshirish va kelajakda korxonani yuksaltirish uchun zamin yaratishda ijobiy siljishlarga sabab bo‘lar edi.

Mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasi haqida gapirganda, shuni alohida ta’kidlashni istardimki, «boshqariladigan iqtisod» yoki “boshqariladigan demokratiya” deb atalmish modellar bizga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi.

Albatta biz, avvalgidek, davlat va jamiyatni isloh etish hamda modernizatsiya qilishda o‘zbek modelining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan bosqichma-bosqichlik tamoyiliga bundan buyon ham qat’iy amal qilamiz. shu ma’noda, mustaqilikni mustahkamlash jamiyatni demokratlashtirish va yangilash biz uchun hamisha birinchi darajali ustuvor maqsad va vazifa bo‘lib qolaveradi. Faqat mana shu asosda, mana shu negizda mamlakatdagi kambag‘allik va qoloqlik muammolarini hal etish mumkin va zarur. Inkor etib bo‘lmaydigan ushbu haqiqat shu muqaddas zaminimizda yashaydigan har bir insonning qon-qoniga, vujudiga singib ketishini istardim.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan yangilanish va iqtisodiy islohotlar jarayonida ushbu zaminda yashovchi har bir inson o‘z o‘rni, aqli, zakovati va bilimi, ijodkorlik faoliyati bilan hissasini qo‘Shmog‘i lozim, deb fikrimni yakunlayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: IPTD O‘zbekiston, 2009.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Korxonalar to‘g‘risida»gi Qonuni. T., «Adolat», 2000.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy korxonalar” to‘g‘risidagi qonuni. T.: “Adolat”. 2005
4. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlar, bozor munosabatlari va mexanizmini rivojlantirish borasida qabul qilingan qonunlar to‘plami. T.: Adolat. 1991-2006.
5. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni «Chet El investorlar xuquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida» 1998y. 30 aprel.

6. Raqobat to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni 06.01.2012 yildagi O'RQ-319-son, kuchga kirish sanasi 07.01.2012

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari

7. "Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag'batlantirishga oid qo'Shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 14 martdagi Farmoni. /Halq so'zi-2007№52.15-16mart/

8. "Tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik sohasidagi huquqbo'zarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2005 yil 24 iyun. PF-3622-son.

9. "Mikro-firmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'Shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2005 yil 20 iyun, PF-3620-son.

10. «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yunalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. g'g' "Xalq so'zi" gazetasi, 2005 yil 15 iyun.

11. "Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2005 yil 14 iyun, PF-3619-son.

12. "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2005 yil 4 iyun.

13. Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 28.04.2015 yildagi PQ-2340-son.

14. Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 15.05.2015 yildagi PF-4725-son.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

15."Xo'jalik jamiyatlari ustav jamg'armasidagi davlat aksiyalari paketlari (ulushlari)ni boshqarish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida "gi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2005 yil 14 martdagi 33-sonli va Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasining 2005 yil 14 martdagi 0106-1802-sonli qarori

16. Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan zarar ko'rib ishlayotgan, past rentabelli va quvvatlardan past darajada foydalanayotgan sanoat va qurilish sohasidagi korxonalarining aksiyalari davlat paketlarini (ulushlarini) «nol» xarid qiymati bo'yicha sotish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 27.05.2015 yildagi 137-son.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

17.Karimov I.A. Biz uchun xalqimiz vatanimiz manfaatidan ulug' maqsad yo'q. – T.: O'zbekiston, 2001. – 240 b.

16.Karimov I.A.Erishgan marralarimizni mustahkamlab islohotlar yo'lidan izchil borish – asosiy vazifamiz. "Toshkent oqShomi" gazetasi, 2004 yil, 10 fevral

18.Karimov I.A.Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezoni bo'lishi darkor. "Xalq so'zi" gazetasi, 2005 yil 25 fevral.

19. Karimov I.A. "Bizning bosh maqsadamiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir".T.: "O'zbekiston"2005.

20.Karimov I.A .Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. "Xalq so'zi" gazetasi, 2006 yil 11 fevral, № 29 son.

21. Karimov I.A. “Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish” – T.:2010y.
22. Karimov I.A. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” Toshkent,2011.
23. Karimov I.A. “2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. 18.01.2014.
24. Karimov I.A. “2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir”.- Xalq so‘zi. 2015 yil 18 yanvar.

Ilmiy maqolalar

25. Abduvaliyev A. “Integratsiyalashgan korporativ tuzilmalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati” Bozor, pul va kredit 02.189 2013
26. Dosmuxamedova R.A. “Formirovaniye investitsionnoy strategii promishlennix predpriyatiy v usloviyax modernizatsii ekonomiki.” Iqtisod va moliya №3,2013
27. Davlatov A., Umarova F. “Korxonani oqilona boshqarishning muhim asosi”. Bozor, pul va kredit. 01.176 2012
28. Maxmudov K.S. «Ishlab chiqarish korxonalarini tashkiliy boshqarish tizimini takomillashtirish». «O‘zbekistonda moliyaviy sektorning rolini oshirish va unda ilg‘or xorij tajribasidan foydalanish» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Toshkent-2015.
29. Nazarova M. «Iqtisodiyotni modernizatsiyalash Sharoitida kadrlarni boshqarish xususiyatlari». «Bozor, pul va kredit» 11/2014 (210)
30. Taspanova A. «Korxonona faoliyatini boshqarishning asosiy yunalishlari» Biznes-Ekspert. №11,2014
31. Shermamatov G‘.G‘. «Menejer va rahbar mehnatini zamon talablariga moslashtirish». «O‘zbekistonda moliyaviy sektorning rolini oshirish va unda ilg‘or xorij

tajribasidan foydalanish» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent-2015.

32. Yakubov E., Muminov T. «Faktori ustoychivogo razvitiya promishlennosti regiona» «Bozor,pul, kredit» 11/2014.

Darsliklar va o'quv qo'llanmalar

33. Abdukarimov I.T. va boshqalar. Korxonona iqtisodiy salohiyati tahlili. O'quv qo'llanma – T.: 2003, – 256 bet.

34. Антонов А.Н., Морозова Л. С. Основа современной организации производства. Учебной пособие. - М.: 2004. 235 стр.

35. Бовуков В. Новый менеджмент. Учебное пособие. – М., 2004.

36. Веснин В.Р. Менеджмент в схемах и определениях: Учебное пособие. – М.: Проспект, 2009. – 120 стр.

37. Голенищев Э. П., Клименко И. В. Информационное обеспечение систем управления. Учебное пособие. Ростов-на-Дону.: Феникс, 2007-300 стр.

38. Дресвянников В.А. Управление знаниями организации. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2010. – 344 стр.

39. Zaynutdinov Sh.N., Nurimbetov R.I. Personalni boshqarish. O'quv qo'llanma. – Toshkent. Yangiyul poligraf service, 2007. – 320 b.

40. Zayniddinov.Sh.N. Menejment. Toshkent. Cho'lpon. 2011.

41. Кантор Е.Л, и др. Экономика предприятия. Учебное пособие. – СП.: Питер, 2009. – 224 стр.

42. Кибанов А.Я. и др. Управление персоналом. Учебник. – М.: РИОР, 2010. – 288 стр.

43. Костров А. В. Основы информационного менеджмента. Учебное пособие. М.: ФиС, 2007-350 стр.

44. Qosimov.D.S. Menejment nazariyasi. Toshkent. Tafakkur bo'stoni. 2011.

45. Лапыгин Ю.Н. Стратегический менеджмент. Учебное пособие. – М.: Эксмо, 2010. – 432 стр.

46. Менеджмент XXI века. Учебник. / Под ред. С. Чоудхари: Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 448 стр.

47. Ortiqov A. va boshqalar. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. O‘quv qo‘llanma. –Т.: 2004. - 256 bet.

48. Fatxutdinov R.A. Organizatsiya proizvodstva. Uchebnoy posobiye. –М.: 2002. – 195 str.

Интернет сайтлари

49. www.gov.uz. –

50. www.press-service.uz –

52. www.mfer.uz –

53. www.UzA.UZ –

54. www.review.uz –

55. www.cer.uz. –

56. www.uz.report.ru –